

BIZ BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz



VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan ● 2024-yil 2-avgust, №31 (3093)

DIYORA

Yapon kurashida yapon qizini
Ippon usulida yutdi Diyora.
Olimp kitobiga go'zal ismini
Oltin harf bilan bitdi Diyora.

Qaldirg'och-u lochin kuchiga qarang!
Tan berdi olmon-u, yiqildi farang,
Kosovoga armon bo'ldi so'nggi jang,
Barchasidan bir-bir o'tdi Diyora.

Oltin olib keldi hammadan oldin,
Yuz oltinga tengdir birinchi oltin!
Nihoyat, his qildik g'alaba totin,
Zafar qadahini tutdi Diyora.

Xushxabar shavqidan polvon elim mast,
Kurash – bu yutgay kim mashqdan erinmas,
Kimning misi chiqsa, tilla berilmas,
Oliy orzusiga yetdi Diyora.

Shohsupaga chiqdi ko'zda yosh bilan,
Bayroqni yuksaltirgan mag'rur bosh bilan,
Shu totli lahzani zo'r bardosh bilan
Ter to'kib, oy-yillab kutdi Diyora.

Quvonib qutladi Millat Sardori:
"Balli, ey xalqimning g'ururi, ori!
Sen bois baxtlidir o'zbek diyori..."
Hammani baxtiyor etdi Diyora.

Diyorimning oltin qizi Diyora,
To'marisning yoniq izi Diyora.
Yurtimning yuzini charog'on etgan,
O'zbekimning yorug' yuzi Diyora!

Nodir JONUZOQ

Champion leytenant Keldiyorova



Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) sportchisi, mahoratli dzyudochimiz leytenant Diyora Keldiyorova Parij – 2024 yozgi Olimpiya o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritdi.

Diyora shu tariqa O'zbekiston tarixida yozgi Olimpiya o'yinlarida chempion bo'lgan ilk ayol sportchiga aylandi!



IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

JAMIYAT SIYOSIY TAFAKKURI SHAKLLANISHINING TARIXIY ILDIZLARI

Tarixdan ma'lumki, donishmand xalqimiz yoshlarning tarbiyasiga juda ham nozik va jiddiy masala sifatida alohida e'tibor qaratib kelgan. Buning asosiy sababi: yoshlarga berilayotgan e'tibor va tarbiya tufayli kelajakda ularning qanday odam bo'lib etishishi mamlakatning bevosita iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hamda ma'naviy taraqqiyotini belgilab bergan.

O'tmishdan ma'lumki, **xalqimiz yoshlarni tarbiyalash sohasida o'zining boy tarixiy qadriyatlarini va an'alariga ega**. Mazkur tarixiy qadriyatlar va an'alar "Avesto" kitobida va boshqa ko'plab qadimgi yozma manbalarda o'z ifodasini topganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy-falsafiy asarlarda, allomalar ilmiy merosida axloqiy masalalarga keng o'rin berilgan, bu esa yoshlar madaniyati shakllanishida muhim o'rin tutgan. Ulardagi hayotiy tajribalar asosidagi ta'limotlar hamda insoniyat va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutgan g'oyalar bugungi kunda yoshlar siyosiy madaniyatining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Bashariyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan yurtimiz mutafakkirlarining bizga qoldirgan boy ilmiy merosini chuqur o'rganish hamda yoshlar tarbiyasiga yo'naltirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero **diyorimiz allomalarining yoshlar siyosiy madaniyatini tarbiyalash haqidagi fikrlari hamda o'g'itlari yoshlarimizda ko'plab insoniylik fazilatlarini shakllantirishga zamin yaratmoqda**. Bu, o'z navbatida, o'z dunyoqarashi va siyosiy madaniyatiga ega bo'lgan erkin fikrlovchi avlodni yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tmishdan ma'lumki, Sharq xalqlarida tarbiya borasida ulkan ma'naviy meros yaratilgan. Bu meros asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib, sayqallanib, yosh avlodning barkamolligini ta'minlash uchun xizmat qilib kelmoqda. Mana shunday an'alarimizdan biri – yosh avlodni tarbiyalash masalasi millat kelajagi uchun mas'uliyat hisoblangan.

Insonning bilimi ortgani sari oliyjanob, adolatli, yuksak va erkinroq bo'lib boradi. Bu haqda Azizuddin Nasafiy yozadi: **"Insonning vazifasi uzluksiz ma'rifatga intilish va o'z borlig'ini nur bilan to'ldirish, ilm topib musaffolikka yetishishdir"**.

Bilimga intilishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri borliqning sir-u asrorlarini o'rganish, izlanish bo'lib, inson o'zi va o'zi kishilarning hayotini avvalgidan ko'ra teranroq tasavvur etishdir. Ma'rifat sohibi bo'lgan bilimdon inson kek, xusumat, adovatdan baland bo'ladi, boshqalarning boshiga musibat-iztirob solmaydi, siyosiy madaniyatning tamoyillari bo'lgan insonparvarlik, tinchliksevarlik va vatanparvarlikni o'ziga shior qilib yashaydi.

Johilda vahshiylilik unsurlari ustunroq, ayonki, vahshiylar tildan, kalomdan, turli ixtiloflarni murosa bilan hal etish imtiyozidan mahrumdir.

Oqil esa o'z ehtiyoji, e'tiqodi, millati, Vatanini suygani yanglig' o'zgalarning ehtiyoji, tuyg'ularini ham hurmat qiladi. U o'ziga ato etilgan so'zlash, tinglash, anglash, shafqatli bo'lish kabi fazilatlaridan foydalanib, adovatdan, qon to'kishdan qochadi – murosa yo'lini tanlaydi. Suqrot aytganidek: **"Haqiqiy ma'rifatga erishgan inson udirki, undan nafaqat do'stlari osoyishta, balki dushmanlari ham tinch hayot kechiradilar"**.

Bilim barcha dunyoviy va diniy masalalarda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning samarali ta'siri tufayli axloq-odob, iymon-e'tiqod hosil bo'ladi va mustahkam mavqega ega bo'ladi. Bilimni rad etuvchi axloq va e'tiqod kemtikdir, ular hayot sinovlariga bardosh bera olmaydi. Inson zoti xotira, nafsiiy-hissiy va aqliy quvvatlarga ega ekan, mazkur ma'naviy quvvatlar tufayli har bir shaxs haqni nohaqlikdan, adolatni adolatsizlikdan, chinni yolg'on-yashiqdan, donolikni nodonlikdan, do'stni dushmanidan, xayrni gumrohlikdan, yaxshilikni yomonlikdan farqlay oladi.

Ilm-ma'rifat va axloqiy fazilatlar asosi bo'lgan siyosiy madaniyat manbai haqida Sharqning zabardast mutafakkiri Abu Nasr Forobiy ulkan meros qoldirgan. **Forobiy o'z zamonasininggina emas, balki barcha zamonlarning buyuk allomasidir**. Zamondoshlari tomonidan qayd etilishicha, Forobiydan oldin bunchalik o'tkir zehnlari, bilimlari alloma bo'lmagan.

Forobiy inson ijtimoiy-siyosiy takomiliga, baxt-saodatga ilm, ma'rifat vositasida hosil qilinadigan aqliy va axloqiy fazilatlarining mushtarakligi orqali erishishi mumkinligi, ilm-hikmatni egallab olish esa o'ta murakkab, mashaqqatli ekani haqida ogohlantirib shunday yozadi: **"Kimki hikmat ilmiga kirishmoqchi bo'lsa u, avvalo, yosh bo'lishi, yaxshi mijozli, har tomonlama odob ilmini o'rgangan odam bo'lishi kerak"**. Avvalo, unday kishi Qur'on, til va qonunshunoslik ilmini egallashi kerak. Unday kishi odamlarga mehribon, pokiza, to'g'riso'z bo'lishi, fisq-fujur, gina, xiyonat, makr va hiyladan xoli bo'lishi kerak".

Sharqning buyuk mutafakkiri Ibn Sino ilm asoslarini o'rganishning ahamiyati xususida dasturiy yo'l-yo'riqlar yaratgan. Uning barcha asarlarida adolatlilik, kamtarlik, saxiylik, sodiqlik, shijoat, hushmuomalalik, sabr, muloyimlik, hayo, do'stlik, insonparvarlik va vatanparvarlik kabi ulug'vor fazilatlariga ta'rif va tavsif berilgan. Ibn Sino o'z hayoti va faoliyatida har doim yaxshilik va ezigulikka intilgan hamda ezigulik va adolat g'oyalarini talqin qilgan.

Ibn Sinoning fikricha, inson amaliy faoliyati ilm asosida yuksaladi. Demak, bilim, iste'dod, tajriba, malaka asosida shakllangan madaniyat inson faoliyatiga o'ziga xos yo'nalish, imkoniyat beradi. Ibn Sino garchi ilm va siyosiy madaniyatning o'zaro aloqadorligi xususida alohida to'xtalmagan bo'lsa-da, uning axloqiy qarashlarining mantiqiy yechimi muayyan darajada ma'naviyat masalasi bilan bog'liq ekanini anglash mumkin.

Abu Rayhon Beruniy buyuk ma'rifatparvar sifatida jamiyat taraqqiyoti bilim orqali ravnaq topishini uqtiradi. **"Hukmronning ilm ahlini ko'proq maqtab, ulardan xursand bo'lishi ham ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Demak, odamlarning qalbi buni sevishi uchun va buning teskarisiga esa nafrat bildirish uchun yaratilgandir"**.

Mutafakkir insonning axloqiy kamoloti, jamiyatning ma'naviy ravnaqiga to'la ishonadi. Uningcha, odam jussasi, suratini o'zgartirib bo'lmaydi, chunki ular tabiiy jarayonlar, sharoitlar va ularning tadrijiy o'zgarishlarining mahsulidir. Ammo uning qalbini, ichki dunyosini cheksiz bir tarzda isloh qilib borish, salbiy jihatlarni bartaraf etib, ijobiy tomonlariga keng yo'l ochib bergan holda, unda axloqiy fazilatlarini asta-sekin shakllantirish mumkin.

Sharq musulmon allomalari adolatli jamiyat, ijtimoiy tenglikka asoslangan tuzum haqida ko'p fikr-mulohaza yuritgan. Bu haqda ulug' alloma Zamaxshariy: **"Haqiqat va adolat bilan to'g'ri siyosat yurgizmagan har bir rahbar va boshliq qattiq azob-ububat va baloga grifor bulur"**, degan fikri orqali siyosiy jihatdan ham yetuk bo'lishni talab etgan.

Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub XI asr turkiy xalqlarining noyob yozma yodgorligi bo'lmish "Qutadg'u bilig" (*"Saodatga boshlovchi bilim"*) asarida ilm-ma'rifat, odob-axloq, davlatni boshqarish yo'l-yo'riqlari, milliy-madaniy qadriyatlar haqidagi keng qamrovli qarashlar, mulohazalar o'z aksini topgan. Uning mazmun-mohiyatini inson muammosi tashkil etadi.

Ilm-u hikmat xususida, ilmi kishining fazilatlarini, bilim va ibratning mushtarakligi masalalari to'g'risida Ahmad Yugnakiy o'zining "Hibat ul-haqoyiq" (*"Hikmatlar tuhfasini"*) asarida batafsil to'xtaladi. Asarning "Ilm manfaati, jaholatning zarari haqida" deb atalgan birinchi faslida: **"Bilim bilan saodat yo'li ochiladi, shunga ko'ra, ilmi bo'l, baxt yo'lini izla"**, deb yoziladi.

"Bir ilmi kishi mingta ilmsizga tengdir, tenglovchi (*tangri*) ilm nasib etgan kishiga o'lgach berdi, mana, boqib sinab ko'rgan, ilmdan ziyoda nima bor. Ilm orqali odam yuqorilab yuksaladi, nodonlik quyiga qarab tubanlashtiradi, erinma, ilmi bo'l", deb uqtiradi Ahmad Yugnakiy.

Tarixdan ma'lumki, **Amir Temur yoshlar qalbi va ongida siyosiy madaniyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan**. Amir Temurning "Tuzuklari", bizning nazarimizda, mamlakatda yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirishda muhim nazariy manba sifatida bugungi kunda ham o'z

ahamiyatini yo'qotmagan. Unda buyuk hukmdor davlat siyosati masalalariga o'zining qat'iy munosabatini noziklik bilan teran bayon qilgan.

Umuman olganda, ulug' ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Alisher Navoiyning "Xamsa", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Nizomulmulknning "Siyosatnoma" asarlaridagi davlatni boshqarish san'ati va shu san'at orqali siyosiy madaniyatni shakllantirish borasidagi fikrlari bugungi kun uchun ahamiyatlidir.

Jadid ma'rifatparvarlarining qarashlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning aksariyati oilada tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga jiddiy e'tibor qaratgan.

Ulug' jadid ma'rifatparvari Abdurauf Fitrat qayd etganidek: "Ota-ona o'z farzandining tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishi kerak, ammo farzand tarbiyasi bilan shug'ullanadigan ota-onaning o'zlari, avvalo, tarbiya ko'rgan, farzand tarbiyasi haqida muayyan bilimga ega bo'lishlari kerak, ularning har ikkisi o'z vazifasini, ota-onalik burchini mukammal ado etishlari, toki ular farzandni jisman, aqlan va axloqan kamolga yetishtirib, hayot maydoniga kuchli, aqli va yaxshi axloq bilan chiqarishi zarur".

Zero ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho didaktik meros yoshlar ta'lim-tarbiyasida muhim omil vazifasini o'taydi. Ular tomonidan yaratilgan ta'lim-tarbiya usullarini xorijiy ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirish va ta'lim jarayonida unumli foydalanish, o'z navbatida, ta'lim jarayonida kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. **Bugungi kunda globallashuvning tobora avj olishi tarbiyaga yangicha va tizimli yondashuvni taqozo etmoqda**. Hozirgi paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat innovatsion-kreativ yutuqlarini keng targ'ib qilish hamda ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meros orqali munosib javob berish strategik vazifa sifatida bizning faoliyatimizda ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Binobarin, **ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy meros, yosh avlodni tarbiyalashda biz avlodlarga g'urur bag'ishlaydi va insonlar qalbidagi Vatan mehri oliy qadriyat ekanini anglatadi**.

Vatan – bu Alloh inoyati bilan har bir millat, elatga berilgan bebaho ne'mat. Jonajon Vatanimizga fidoyi bo'lib xizmat qilish bu har bir insondan doimo hushyor, sergak, ogoh bo'lishni taqozo etadi. Vatan – muqaddas qadriyat. Vatan mehri, Vatan sehrini uning ulug'vorligini ta'riflashga so'z o'zidir. Inson uchun na davlat, na saltanat, na toj-u taxt – hech bir narsa Vatanga, el-yurt mehriga aslo teng kelolmaydi.

Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun fidoyilik tuyg'usi ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan buyuk meros, axloqiy qadriyatdir. Vatanga muhabbat, imonga sadoqat Temur Malik, buyuk sarkarda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi ulug' yurtparvarlar, Vatan ozodligi yo'lida qo'lida tig' va tug' ila jon bergan Shayx Najmiddin Kubro, Vatan hajri va dog'ida yonib o'tgan Bobur Mirzolar ibratini bizga yurt mustaqilligi va xalq ozodligi yo'lida aziz jonini, muborak qonini fido qilgan vatanparvar, xalqparvar insonlarning muhabbati naqadar ulug', imonlari qanchalik mustahkam ekanini yana bir bor namoyon etadi.

Nuriddin SAIDKULOV, Guliston davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik kafedrasida dotsenti

OLIMP

CHO'QQISINI ZABT ETGAN LEYTENANT DIYORA KELDIYOROVA

Eng,eng,eng:

Fransiyada bo'lib o'tayotgan Parij – 2024 yozgi Olimpiadasining ilk medalini qo'lga kiritgan leytenant Diyora Keldiyorova O'zbekiston tarixida yozgi Olimpiya o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritgan ilk ayol sportchi sifatida tarixdan joy oldi. Bundan tashqari, O'zbekiston dzyudosi tarixida Olimpiadaning oltin medalini qo'lga kiritgan ilk sportchi sifatida ham tarixga nomini zarhal harflar bilan yozdirdi.

Dzyudo bo'yicha -52 kilogramm vazn toifasida Olimpiada g'olibiga aylangan va O'zbekiston sporti tarixida yangi sahifa ochilishiga sababchi bo'lgan qahramonimiz 6 yoshidan boshlab sport bilan shug'ullanib keladi. "Sport hayotimning bir bo'laki", deydi Diyora. Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi sportchisi leytenant Diyora Keldiyorova allaqachon professional sportda o'z o'rniga ega bo'lib ulgurgan. Tirishqoqligi va mehnatsevarligini inobatga olgan holda, **mudofaa vazirining buyrug'iga asosan, 2024-yil 17-may kuni kichik serjant Diyora Keldiyorovaga muddatidan oldin leytenant harbiy unvoni berilgan edi.** Bunday ishonch va mas'uliyatni his qilgan qahramonimiz Fransiyada bo'lib o'tayotgan Parij – 2024 Olimpiadasida oltin medalni qo'lga kiritib, bildirilgan ishonchni yana bir bor oqladi.

Leytenant Diyora KELDIYOROVA:

– Olimpiadaning oltin medali ko'ksimda turar ekan, boshim uzra bayrog'im ko'tarilgancha madhiyamiz yangrardi. Bu lahzalarni tasvirlab berishim imkonsiz. Tanamda va ko'nglimda ro'y berayotgan kuchli to'liqinni his qilarkanman, yuragim ko'ksimdan otilib ketgudek urardi. Oyoqlarimda qaltiroq, xuddi tush ko'rayotgandek edim.

Yurtboshimizning shaxsan o'zlari telefon orqali tabriklaganda, Olimpiadagacha bosib o'tilgan mashaqqatlarimning barchasi unut bo'ldi. Menga bildirilgan ishonch uchun Prezidentimga, Mudofaa vazirligiga, marhum buvijonim, ota-onam va xalqimga cheksiz minnatdorligimni bildiraman. Ularning yuzini yorug' qilishga doimo harakat qilaman.

Baxtiyor MARDONOV, otasi:

– Qizimning ortidan shunchalik g'urur va iftixorni tuyaman, deb o'ylamagan edim. To'g'ri, Olimpiada g'olibligiga erishishini kutganman, ichki tuyg'ularim sezardi. Biroq g'oliblikni qo'lga kiritib, yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilgan pallada o'zimning ichki holatimni tiyib turishim qiyin bo'ldi. Tabiatan ancha vazmin bo'lishimga qaramasdan, o'sha lahza o'zimni boshqarishim qiyin kechdi. O'rnimdan qay holatda turib ketganimni bilmayman. Ruhim tanamga sig'masdi. Hatto 15 sotixli hovlimiz ham quvonchdan to'lgan ko'nglimga torlik qildi. Beixtiyor baqirib yubordim.

Diyora maktabda ham a'lo baholarga o'qigan. Matematika va fizika fanlaridan fan olimpiadasiga qatnashib, Pstdarg'om tumanida birinchilikni qo'lga kiritgan edi. Hozirda to'rtta tilda so'zlasha oladi. Bo'sh vaqti bo'lsa, darrov kitob o'qishga tushadi. Qizimning erishgan yutuqlarida ko'pgina yaxshi insonlarning hissasi bor. Oxirgi paytlarda Diyorani qo'llab kelayotgan qaynota-qaynonasiga va kuyovim Azamatga rahmat aytmoqchiman. Diyoraning harbiy sportchi ekanini to'g'ri tushunib, unga imkoniyat yaratib berishga qo'lidan kelgunicha harakat qilishmoqda.

Dilorom SHARIPOVA, onasi:

– Diyora Olimpiadaga qatnashish uchun Parijga jo'nab ketganidan keyin halovatimiz yo'qoldi. Bir oy davomida kim bilan tushar ekan-u, natija nima bo'lar ekan, deya jonim halak bo'ldi. Ayniqsa, yaponiyalik Abe bilan kurashishini bilganimizdan keyin xavotirim yanada ortdi. Chunki qizim jahon chempionatida xuddi shu raqibiga imkoniyatni boy berib,

kumush medal bilan kifoyalangan edi. Shukrki, hammasi boshqacha bo'ldi. Boshida ochkolar hisobidan raqibi oldinda borayotgandi.

Ammo Diyoram ippon usulida yiqitgancha g'olib bo'ldi. O'sha paytning o'zidayoq qizimning oltin medal olishi aniqdek tuyuldi. Aslida Diyora bilan Abe o'rtasidagi kurash finaldan ham qiziqarli, xavotirli bo'ldi. To'g'risini aytсам, bir tomondan yaponiyalik raqibiga ham rahmim keldi. Besh yildan beri mag'lubiyat nimaligini bilmay kelayotgan sportchi uchun mag'lubiyatni tan olish qiyin. Ammo qaynonam aytganidek, yiqilganda tushkunlikka tushgan emas, qayta tura olgan sportchi kelajakda natijaga erisha oladi.

Qaynonamni mahalladagilar "general buvi" deb chaqirishardi. O'ta qattiqqo'l, aytganini qildiradigan va maqsadidan og'ishmaydigan inson edi. Qishloq sharoitida uy ichiga ikki-uch ko'rpani ochib (*qo'lbola tatami*) qo'ygancha, nabiralarni kurash tushishga majburlardi. O'zining nabiralarga qo'shimcha qilib, qo'shni bolalarni ham uy ichidagi "championat"ga chorlardi. G'oliblarni saralab, Toshkentdagi JAR sport kompleksiga olib borardi.

Bugun o'sha insonning sa'y-harakatlari zoye ketmadi. O'zlari bu kunlarni ko'rmagan bo'lsa-da, Diyoramning kelajagiga juda katta hissa qo'shib ketdi.

Azamat MATYOQUBOV, turmush o'rtog'i:

– Olimpiada bo'layotgan kunlari uni chalg'itmaslik uchun Parijga bormadim. Ammo Diyoraning barcha chiqishlarini televizor orqali kuzatib o'tirdim. Uning yutuqlarini o'zimmiki sifatida qabul qildim. Hissiyotlarimni jilovlay olmaydigan paytlarim ham bo'ldi. Chunki Olimpiadaning oltin medaliga ega bo'lish uchun qanchalik mashaqqat chekkanining guvohi bo'lganman. Diyora haqqoniy g'alabaga erishdi. Murabbiylar ham kerakli tavsiyalarni berib turishdi. O'zim ham dzyudo sport turi bilan muntazam shug'ullanib kelganim uchun Diyoraning ichki imkoniyatlarini baholay olaman. Uning tirishqoqligi va maqsadidan og'ishmasligi g'alabaga bo'lgan masofani qisqartiradi. Murabbiy kuchli bo'lishi mumkin, ammo sportchining o'zida ham mahorat va qobiliyat bo'lishi kerak.

E'tiborlisi, Diyora Keldiyorovaga hattoki Yaponiyaning Maydzuru shahri meri Kamoda Akitsu ham

OLIMPIADAGACHA:

Jahon chempionati sovrindori. 2021-yil. Budapesht, Vengriya.

Jamoaviy birinchilik, bronza medal. 2023-yil. Doha, Qatar.

Kumush medal. 2024-yil. Abu-Dabi, BAA.

Ikki marta Osiyo chempioni – 2019-yil. Al-Fujayra, BAA. 2024-yil. Nursulton, Qozog'iston.

Ikki marta Osiyo chempionati sovrindori – 2021-yil. Bishkek, Qirg'iziston 2-o'rin. 2024-yil. Gonkong 3-o'rin.

Butunjahon harbiylar (2019-yil. Uxan, Xitoy) va yozgi Universiada (2019-yil. Neapol, Italiya) o'yinlarining bronza medali sovrindori.

Bir necha marta Katta dubulg'a, Gran-pri hamda boshqa nufuzli musobaqalar g'olibi va sovrindori.

maktub yo'llab, O'zbekistonda dzyudo sport turiga berilayotgan e'tibor, Diyoraning iste'dodi, nozik usullardan chuqur xabardorligi, bilim va salohiyati tahsinga sazovorligini ta'kidladi. "Tokio – 2020" hamda "Parij – 2024" Olimpiya o'yinlariga aynan Tokioda o'tkazilgan o'quv mashg'uloti yig'inlarida ishtirok etgani, yaponiyalik dzyudo ixlosmandlariga cheksiz faxr bag'ishlaganini bildirib o'tdi.

Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"





ARTILLERIYA BO'LINMALARI MAHORATINI OSHIRDI

Bugun harbiy xizmatchilarning professionallik darajasini yuksaltiradigan va xalqaro standartlarga to'liq javob bera oladigan "Nukus" umumqo'shin poligonida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug artilleriya bo'linmalarining navbatdagi dala yig'ini o'tkazildi.




Darvoqe, zamonaviy jangda muvaffaqiyatga erishishda artilleriyaning o'rni va roli juda katta bo'ladi. Zero jang maydonida va frontning bir necha kilometr olisrog'idan aniq zarba bera olish qudratiga ega bo'lgan artilleriya qurollari jangni hal etish nuqtasini qo'yishga qodir.

Pozitsiyalarni jihozlash, nishonlarga bo'lgan masofani aniqlash va shartli dushmanni yakson qilish – bu kabi vazifalarni sifatli bajarish uchun artilleriya batareyasiga iqlimning injiqliklari ham to'sqinlik qila olmadi. Rejadagi taktik o'quv mashg'ulotiga jalb etilayotgan artilleriya va minomyot batareyasining kuch-qudratini namoyish etish, komandirlar va shaxsiy tarkibning samarali faoliyatini ko'rsatishga yordam berdi.

Qisqa vaqt ichida hududga yetib kelgan batareya asosiy o'q otish pozitsiyalarni egalladi. Batareya komandiri esa nishonlarga bo'lgan masofani aniqlash va optik kuzatish moslamalariga aniqliklar kiritishni boshladi. To'p va bo'linmalarni joylashtirishda o'q otishni boshqarish va umumqo'shin bo'linmalari bilan o'zaro jangovar hamkorlikni ta'minlab turish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Taktik o'quvning shartiga ko'ra, artilleriya batareyasi yopiq o't ochish pozitsiyasidan 7 km.gacha bo'lgan masofadagi nishonlarga qarata o'q uzdi. Ushbu o'quvda jami 7 ta o't ochish mashqi ko'rib chiqilgan bo'lsa, minomyot bo'linmalari yarim to'g'irlab otishda 3 kilometrdan olisroqda joylashgan shartli dushman kuchlarini yakson etdi.

O'quv davomida umumqo'shin bo'linmalari bilan shartli dushmanni kunduzi va tunda qurshab olish hamda yo'q qilish bo'yicha o'quv-jangovar vazifalar bajarildi. Tungi vaqtda artilleriya batareyasi tomonidan qo'llanilgan yorituvchi snaryadlar vositasida nishonlar joylashgan hudud



yoritilib, shartli dushmanning zirhli texnikasi va shaxsiy tarkibiga talafot yetkazildi.


Mashg'ulot davomida qo'yilgan barcha topshiriqlar bajarilib, nishonlar yakson etildi. Demak, batareya bu o'quvda ham muvaffaqiyat qozondi.

Ta'kidlash joizki, Qurolli Kuchlarimiz strategik va taktik jihatdan qo'llashning yangicha usul va uslublarini ishlab chiqishda hamda qo'shinlar harakatini jangovar

qo'llab-quvvatlashda artilleriya kuchi va qudratiga katta e'tibor berib kelinyapti. Zero qo'shinlar ortidan bo'linmalarga olov bilan madad berish, relyefning past-balandligidan qat'i nazar shartli dushmanga qarshi qaqshatqich zarba berishga qodir bo'lgan artilleriyaning o'rmi alohida.

Yuqori qo'mondonlik tomonidan harbiy xizmatchilarning tayyorgarligi va har vaqt yurt himoyasiga tayyor turgan artilleriya qurollarining jangovar shayligi yuqori baholandi.

**Kichik serjant
Abdullajon UMARALIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy
okrug matbuot xizmati**



HAMKORLIKDAGI

O'QUVLARDA KO'NIKMALAR OSHIRILDI

Armiya azaldan mamlakat tayanchi, tinchlik va osoyishtalik garovi bo'lib kelgan. Zamon shiddati oshib borayotgan bugungi davrda milliy armiyamizni isloh qilish, uni har tomonlama rivojlantirish, harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini mustahkamlab borish eng muhim talablardan biri sanaladi.

Yig'inning dastlabki kunida bo'linmalar jangovar shay holatga keltirilib, dala-o'quv maydoniga yetib kelib joylashdi.

Yig'inda asosiy e'tibor mutaxassislarning amaliy ko'nikmasini oshirish, artilleriya batareyalari o'rtasidagi hamjihatlikni mustahkamlash,



Bunda kuch tuzilmalarining hamkorlikdagi harakatlari real vaziyatlarda qo'shinning bir-birini so'zsiz tushunishi, jangovar vazifaning tez va sifatli bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bugun xoh poligonda, xoh shahar sharoitida o'tkazilayotgan o'quv mashg'ulotlarini kuzatsangiz, hamkorlikdagi kuch tuzilmalarining harakatiga guvoh bo'lasiz.

"Termiz" dala-o'quv maydonida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug va Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari artilleriya va minomyot bo'linmalari ishtirokida dala yig'ini o'tkazildi.

komandirlarning bo'linmalarni jangovar vaziyatlarda boshqarish mahoratini oshirishga qaratildi. Mashg'ulotlar rejaga asosan, real jang sharoitiga yaqinlashtirilgan holda olib borildi.

Dala yig'ini davomida shaxsiy tarkibning o'zaro tajriba almashishi, turli vaziyatlarda jismoniy-ruhiy holati va chidamlilik sifatlarini mustahkamlash, shuningdek jangovar shayligini oshirish kabi masalalarga ham alohida urg'u berildi.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**
Termiz garnizoni

MUTAXASSISLAR TAJRIBASI BOYIDI

“

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugning o'quv yiliga belgilangan tayyorgarlik rejasiga asosan, "Nukus" umumqo'shin poligonida harbiy okrug va Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonliklarining Nukus va Urganch garnizonlarida joylashgan quruqlikdagi qo'shinlar havo hujumidan mudofaa bo'linmalari bilan bir necha kunlik aviatsiyaning intensiv uchish hududida dala chiqishi amalga oshirildi.



Poligon hududiga yetib kelgan mutaxassislarning saf ko'rigi, mashg'ulot rahbarlari va shaxsiy tarkibning tayyorgarligi okrug havo hujumidan mudofaa bo'limi ofitserlari tomonidan ko'rib chiqildi. Amaliy mashg'ulotlarda texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish bo'yicha yo'riqnoma yetkazildi. Yozning jazirama kunlarida katta-yu kichik quyoshning olovli taftidan o'zini soyaga uradigan paytlar bo'lishiga qaramay, havo hujumidan mudofaa bo'linmalari dala chiqishi rejasida belgilangan barcha jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini sifatli bajarishga erishdi. Amaliy mashg'ulotlardan oldin qoidaga ko'ra, nazariyani yana bir bor takror etib, o'tilgan mavzular bo'yicha bilimlar mustahkamlandi. Mashg'ulotlar qizg'in bahs-munozara va mulohazalarga boy bo'lib, bunda katta hayotiy

tajriba, o'qib-izlanish orqali orttirilgan bilimlar o'tilayotgan mavzularga yanada ko'proq mazmun bag'ishladi.

Navbatdagi o'quv joyida ko'chma zenit-raketa kompleksini ishga tushirish va nishonlarni yakson etish belgilangan. Mashg'ulot dala trenajyorida real vaziyatga yaqinlashtirilgan tarzda olib borildi.

Zenitchilar havo nishonlarini aniqlash va yo'q qilishni mashq qildi.

Dala chiqishi doirasida bo'linmalar jamoaviy jipslik va axloqiy ruhiy tayyorgarlikni oshiradigan suvli to'siq yo'lagidan o'tish bo'yicha mashqlarda qatnashib, jismoniy kuch, chaqqonlik, epchillikni namoyish etdi. Musobaqadoshlik ruhida kechgan bahslarda mutaxassislarning kuchli raqobat muhitini yaratdi.

Berilgan topshiriqdan so'ng zenit hisoblari tomonidan qurilmalar o'qlanib, jangga tayyor holatga keltirildi. Nishongacha bo'lgan masofalar, shamol tezligi va o'q otishga ta'sir etuvchi boshqa omillar qurilma komandiri va nishonga oluvchi tomonidan inobatga olinib, qurilmaga dastlabki kiritmalar o'rnatildi. Qisqa va uzun navbatlar bilan otilgan zirhteshar, yondiruvchi va oskolka-fugasli snaryadlar shartli nishonlarni talafotga uchrata boshladi.

Amaliy mashg'ulotlar davomida bir nechta qurilma hisobi o'quv-jangovar vazifani sifatli bajarishga erishdi. Muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar ham bu mashg'ulotlarda faol qatnashib, soha bo'yicha zarur ko'nikmalarga ega ekanini namoyish etdi.

Shuningdek, yig'in davomida Mudofaa vazirligi "Kalibr" ovchilar va baliqchilar klubining Xorazm viloyati a'zolari ishtirokida ov miltiqlaridan foydalangan holda harbiy xizmatchilarda shartli ravishda uchuvchisiz uchish apparatlari va dronlarga qarshi samarali foydalanish ko'nikmasi egallandi.

Bo'linmalarni birdamlikda harakat qilishga, kuchli emotsional va stress holatlarida vazifalarni bajarishga o'rgatishga, kasbiy malaka va mahoratini yuksaltirishga xizmat qilgan dala chiqishi davomida jangovar ruh va axloqiy-ruhiy fazilatlarini mustahkamlashga e'tibor qaratildi.

**Podpolkovnik
Oribjon MAMAROZIQOV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
havo hujumidan
mudofaa bo'limi boshlig'i**

Mashg'ulotlar davomida bo'linmalarning jipsligi, jangovar tayyorgarligi hamda har qanday vaziyatda yuklatilgan vazifalarni bajarish imkoniyati nazoratdan o'tkazildi.

Albatta, yer va samodagi shartli dushman texnikasiga qarshi zenit qurilmalarini qo'llash orqali taktik vazifalarni bajarish, maxsus to'siqli yo'lakni yengib o'tish kabi vazifalarni havo hujumidan mudofaa bo'linmalari bu safar ham muvaffaqiyatli bajara oldi.





MARDLAR SAFIDA BO'LIQ YOSHLARGA FAXR ULASHMOQDA

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug Termiz garnizonidagi harbiy qism madaniyat markazida otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida "Mardlar safidaman" shiori ostida qo'shiqlar tanlovining shahar bosqichi bo'lib o'tdi.

Mudofaa vazirligiga mamlakatimizda birinchi sektor kesimida mahallalardan yoshlar birlashtirilib, otaliqqa olingan o'g'il-qizlar bilan amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish uchun hududiy shtablar tashkil etilgan. Mahallalarga harbiy xizmatchilar ajratilib, yoshlar bilan turli madaniy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, festivallar o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

Surxondaryo viloyatidagi Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlar vohaning birinchi sektoridagi 65 ming 605 nafar o'g'il-qizni otaliqqa olgan. Ularning 5 ming 373 nafari Termiz garnizonidagi harbiy qismlarga birlashtirilgan.

Tinchligimiz posbonlari bevosita mahallalarda o'zlariga birlashtirilgan yoshlar uchun vatanparvarlik, huquqiy va boshqa ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etib, ularning Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirishga, yosh avlodning ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom ulg'ayishiga ko'maklashmoqda. Yoshlar duch kelayotgan muammolar o'rganilib, ularni hal etish choralari ko'rildi. Vaqtincha ishsiz yigit-qizlarning bandligini ta'minlash uchun kasb-hunarga o'qitilyapti. Turli ziroat yetishtirib, daromad topishi uchun yer maydonlari, ish qurollari uchun subsidiyalar ajratilmoqda. O'z biznesini yo'lga qo'yib, tadbirkorlik qilish istagini bildirgan yoshlarga kredit

mablag'larini olishga ko'maklashdi. Kam ta'minlangan, ko'makka muhtoj yoshlarga moddiy yordam ko'rsatildi.

Harbiy qismda "Mardlar safidaman" shiori ostida o'tkazilgan qo'shiqlar tanlovi ham yoshlarning vatanparvarlik tuyg'usini, jasorat va matonat hissini mustahkamlashga xizmat qildi.

– Tanlov ishtirokchilari o'zlari tayyorlab kelgan qo'shiqlarini

mahorat bilan kuylashga intildi, – deydi podpolkovnik Nizomiddin Atajanov.

– Ularning ijrochilik mahoratini malakali mutaxassislar munosib baholadi. Bu jarayonda matnning ta'sirchan badiiy obrazlarga boyligi, mazmundorligi, xalqchilligi, Vatanga muhabbat va istiqbolga sadoqat g'oyalari bilan yo'g'rilgani, milliy qadriyatlar, insoniy fazilatlar va elsevarlik kabi ezgu tuyg'ular ulug'langaniga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur harbiy qismning harbiy xizmatchilari otaliqqa olgan o'g'il-qizlar bilan bevosita hamkorlik o'rnatib, hayotda duch kelayotgan muammolarini o'rganmoqda. Ularni harbiy qismga taklif etib, Vatan posbonlari uchun yaratilgan sharoitlar, harbiy qurol-aslahalar bilan tanishtirdi. Turli ma'naviy-ma'rifiy, harbiy-vatanparvarlik tadbirlari,



festival va uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Qiziqarli sport bellashuvlari, ko'rik-tanlovlar tashkil etilib, ularning noyob iste'dodlarini ro'yobga chiqarishiga ko'maklashadi.

– Tanlovda Vatanimiz ulug'lanib, buyuk ajdodlarimiz jasorati, mardlik va sadoqati kuylangan qo'shig'im bilan faxrli 1-o'rinni egalladim, – deydi Termiz shahridagi Tuproqqo'rg'on mahallasida yashaydigan Husan Musayev. – Tadbirlarda harbiy orkestr ijrosidagi kuy-qo'shiqlarni miriqib tinglaganim, ularga havas qilganim mana shu qo'shig'ni tayyorlab, kuylashimga o'ziga xos turtki bo'ldi. Harbiy akalarim hayotimni tubdan o'zgartirishga ko'maklashdi. Biz uchun tashkil etilgan turli tadbirlar Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat va buyuk ajdodlarimiz merosiga hurmat hissini yanada oshirdi. Ushbu tanlovda ham mening san'at sohasidagi izlanishlarimga yuksak baho berilganidan faxrlandim.

Tanlov g'oliblari Termiz shahar hokimligi, harbiy qism qo'mondonligi, O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi shahar bo'limining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**
Termiz garnizoni



“TARAQQIYOT VA OZODLIK ORZUSI” JADIDLAR TUZGAN TA'LIM JAMIYATLARI

XX asr boshlarida Turkiston jadidlari iqtidorli yoshlarni xorijda, ayniqsa Usmoniylar saltanatidagi oliy va o'rta ta'lim muassasalarida o'qitishni maqsad qildi. Ular aynan ushbu mamlakatni tanlashining bir necha sabablari bor edi. Birinchidan, ikki xalqning tili bir-biriga yaqin, ikkinchidan, dini bir, uchinchidan, turklar tomonidan Yevropadagi ilm-fan yangiliklarining o'zlashtirishi, ta'lim muassasalarida dunyoviy bilimlar o'qitilishining yo'lga qo'yilgani edi.

1909-yili Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Ahmadjon Hamdiy, Hamidxo'ja Mehriy, Hoji Rofe va Mukammil Burhonov Buxoroda “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) jamiyatini tuzadi. “Tarbiyai atfol” o'z faoliyatining ilk yilidayoq bir guruh yoshlarni Istanbulga o'qishga yuboradi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad amirlikdagi jadid maktablari ishini yanada takomillashtirish, “usuli tadrish”ning ham amaliy, ham nazariy asoslarini ishlab chiqish, darsliklar, o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar yaratish edi.

Buxoro amirligidagi jadidchilik harakatida faol qatnashgan Usmonxo'ja, Otaulla Xo'ja va Hamidxo'ja Mehriy 1909-yili o'qish uchun Istanbulga borganda, Anvar posho ularni rasmiy delegatsiya kabi kutib olgan. Bu hodisa Rossiya imperiyasining Istanbuldagi elchisini xavotirga solib, bu haqda rus imperatori Nikolay II ga xabar berilgan. Imperator Buxoro amiri Abdulahadxondan Usmonxo'ja va Hamidxo'ja Mehriy haqida ma'lumot so'raganida, **amir Rossiya imperatoriga: “Ular yosh bolalardirlar, Turkiyaga tahsil olish uchun borganlar”, deb javob qaytargan.** Usmonxo'ja, Otaulla Xo'ja va Hamidxo'ja Mehriy Istanbuldagi maktab va maorif, milliy madaniyat sohasidagi shaxsiyatlar bilan tanishib, suhbat qurgan. Shuningdek, xususiy dars olib, dunyoviy fanlar bo'yicha bilimni o'rttirgan.

“Tarbiyai atfol” jamiyati ko'magida Istanbul dorulfununida tahsil olayotgan Usmonxo'ja, Abdurauf Fitrat va boshqalar Turkiyada o'qiyotgan vatandoshlarga ham iqtisodiy, ham ma'naviy yordam ko'rsatish, Buxoro amirligi va Turkistondan talabalarning kelishini ko'paytirish hamda muntazamlashtirish maqsadida “Buxoro ta'limi maorif” xayriya jamiyatini tuzadi.

Ushbu jamiyat haqida Ahmad Zaki Validiy quyidagilarni yozadi: “Bu jamiyat Istanbulda bir sho'ba ocharoq, unga 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda 30 nafar talaba yubordi. Bu sho'ba “Buxoro ta'mimi maorif jamiyati” nomi bilan rasmiy bir jamiyat shaklini oldi. 1910-yilda Eron yo'li bilan Istanbulga kelgan Fitrat ila Muqimiddin, Rusiya yo'li bilan kelgan Usmonxo'ja, g'uljalik Abdulaziz va Sodiq

Ashur o'g'li bu jamiyatning quruvchilari edi”.

Ushbu jamiyat o'z faoliyati davomida 60 ga yaqin buxorolik va turkistonlik talabaga ham moddiy, ham ma'naviy yordam ko'rsatgan.

“Buxoro ta'limi maorif” jamiyati Xiva xonligidagi iste'dodli yoshlarni qamrab olish uchun ham harakat qilgandi. 1910-yili Hamidxo'ja Mehriy ta'lim vaqtida Xiva xonligi hududiga borib, yoshlarni Istanbulda o'qishga da'vat etgan. Ammo Rossiya imperiyasining Amudaryo bo'limi ma'murlari tomonidan Hamidxo'ja Mehriyning ta'qib ostiga olinishi **jamiyatning Xiva xonligida o'z maqsadlariga erisha olmasligiga sabab bo'lgan.**

“Buxoro ta'limi maorif” jamiyatining tarkibi doimiy va muxbir a'zolaridan iborat bo'lgan. Jamiyatning bosh organi kengash bo'lib, unga 14 kishidan iborat doimiy a'zo saylangan. Ular orasidan esa jamiyat raisi tayinlangan. Jamiyatga a'zo bo'luvchilar har oy 10 piastri miqdorida badal to'lashi shart bo'lgan. Usmonli turk sultonligida tahsil olishni xohlovchi Buxoro va Turkistondagi kambag'al oilalarning farzandlariga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida ochilgan bu jamiyat 10 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan sog'lom bolalarni qabul qilishni shart qilib qo'ygan. Jamiyat a'zolari Istanbulda maktab ochib, Turkiston va Buxorodan kelgan yoshlarga ta'lim bergan.

Buxorodan Istanbulga ta'lim olish uchun yuborilgan yoshlar Usmoniylar davlatidagi Rossiya imperiyasi elchixonasi xodimlari tomonidan doimiy kuzatib borilib, ular to'g'risida Sankt-Peterburgga axborot berib turilgan. Chunonchi elchixonaning **1911-yili imperiya poytaxtiga yo'llagan maxfiy ma'lumotida shunday deyiladi:** “Buxoro amirligidan bo'lgan jami 30 ta o'quvchi Mukammil Burhonov va Mazhar Burhonov homiyligida Istanbulda o'qitilmoqda”.

1913-yilga kelib, Usmonli turk sultonligi shaharlaridagi ta'lim muassasalarida Turkiston va Buxorodan kelgan 250 dan ortiq yosh tahsil olayotgandi. Ularning asosiy yashash joylari Istanbul va boshqa shaharlardagi o'zbek takyalari bo'lgan.

1913-yilning bahorida Usmonxo'ja, Otaulla Xo'ja, Abdurauf Fitrat va Hamidxo'ja Mehriy Istanbuldan Vatanga qaytib, Buxoroda jadid maktablari ochadi. Maktablarni kitob va darsliklar bilan ta'minlash maqsadida, 1914-yili “Ma'rifat” kutubxonasi, 1915-yili esa “Barakat” shirkati tuziladi. Shirkat Istanbul, Orenburg, Bog'chasaroy, Bokuda chiqadigan har bir yangi kitob, darslik va nashrlarni kutubxonaga yetkazib berib turgan.

Toshkent jadidlari ham turk ma'rifatparvarlari bilan yaqindan aloqa o'rnatgan edi. 1901-yili Turkiston jadidlarining ko'zga ko'ringan namoyandasi Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentning Shayhontohur dahasida Mirdadahoji ismli boyning mehmonxonasida jadid maktabi ochgan. Maktab uchun darslik va o'quv qo'llanmalar juda zarurligini yaxshi bilgan Munavvarqori Abdurashidxonov Istanbuldan diniy va dunyoviy o'quv risolalar, alifbo va o'qish kitoblar keltirgan. Bu haqda keyinchalik Muhammadamin Afandizoda shunday yozgan: “Munavvarqori Turkistonni istilo etganlarga qarshi kurashishning yagona yo'li ta'limda deb bildi. Xalqni isyonga chorlamadi. Bizning g'alabamizning birinchi sharti va asosi bilim va texnikadir, deb biz yoshlarga tahsilni Istanbulda davom ettirish kerakligini ta'kidlar edi”.

Munavvarqori Abdurashidxonov toshkentlik boylar Saidkarimboy Saidazimboy o'g'li, aka-uka Komilbek va Karimbek Norbekov kabilar homiyligida iste'dodli yoshlarni Istanbul, Rossiyaning musulmon o'lkalari universitetlarida o'qitish uchun 1909-yili “Jamiyati imdodiya” (“Yordam”)ni tuzgan. Saidkarimboy Saidazimboy o'g'li jamiyat raisi, Munavvarqori Abdurashidxonov esa rais o'rinbosari etib tayinlangan. Jamiyatning 41 banddan iborat nizomi tasdiqlangan. Bashirullaxon Asadulloxo'ja o'g'li, Mulla Abdulla Avloniy, Nizomqori mulla Husayn o'g'li va Toshxo'ja hoji Tuyuqboy o'g'li jamiyat a'zolariga aylangan.

Istanbulda tahsil olayotgan yoshlar Usmonli turk sultonligi va Turkistondagi ilm-fan taraqqiyoti va ta'lim tizimini taqqoslab, “Turkistonlilarga xitob” nomalarini “Oyina” jurnaliga yo'llaydi.

Bu murojaatnomada: “Ey, musulmonlar, birodarlar! Bizlarga chalishmoq vaqti yetmadimi? Bu qadar jaholatga botdikimizda yetmasmi?.. Emdi moziyimiz ila istiqbolimizni o'ylamoq kerak. Biz, turkistonliklar qadar orqada qolgan hech bir millat qolmadi. Afriqo vahshiylarida bizdan ilgariidurlar. Biz boshqa millatlardan ibrat olaylukda, o'zimizni erkimizni bilmoqchi ijti-hod etaylik. Millatimiz ehtiyojini va millat ishlarini to'g'ri yo'lga solmakg'a harakat edalik. Vatan ishlarimiz har turli yordamda bo'linalik. Jaholat va safolatdin millatimizni qutqarmoqg'a cholis-halik. Maktab-madrasa ochmakg'a, jamiyat va shirkatlik tijoratxonalari ta'sis etmoqg'a harakat etalik. Rusiya, Ovrupa, Misr va Istanbulg'a talaba yubormoq kerakdur. Ey, turkistonli musulmonlar, birodarlar! Ko'zingizni oching, majalla va jaridalarg'a boqub, dunyoni biling, jaholat ichinda g'arq o'lmish o'lan vatandosh va millatdoshlarimizni qutqarmoq kerakdur”, deb da'vat etadi.

Rossiya imperiyasiga xizmat qiluvchi josuslar maxfiy xatlarida Toshkent jadidlarining yetakchisi Munavvarqori Abdurashidxonovni Yosh turklar harakatining tarafdori deb atab, turk tilidagi kitoblarni tarjima qilganlikda, tushgan pullarni go'yoki turk flotini ta'minlash uchun Usmonli turkga yuborganlikda ayblagan.

1916-yili Qo'qon taraqqiyparvarlari tomonidan “G'ayrat” jamiyati tuziladi. Bu jamiyatning maqsadi yangi usul maktablarini darslik, daftar va o'quv qurollari bilan ta'minlash, aholi orasida kitob, gazeta va jurnallarni mahalliy tilda chop etib, tarqatishdan iborat bo'lgan. Qo'qonning eski shahar qismida joylashgan jamiyatga qarashli kitob do'konida Orenburg, Istanbul, Bokuda chiqadigan kitoblardan tashqari, gazeta va jurnallar ham sotilgan. Farg'onadagi muhofaza bo'limi “G'ayrat” jamiyati turklarning “Ittihad va taraqqiy” jamiyatining shu'basi degan xulosaga kelgan. Shuningdek, Turkiston ziyoli vakillari tomonidan Rossiya bilan urushda Usmonli turk sultonligiga yordam uchun pul yig'ilyapti, deb hisoblagan. Turkistonga tashrif buyurgan Yosh turklar harakati vakillari Turkiston general-gubernatorligining maxsus qo'riqchi idoralari tomonidan alohida nazorat ostida bo'lgan.

Samarqandlik jadid Abduqodir Shakuriy ham yangi usul maktabi tashkil etgach, uning faoliyatini takomillashtirish, “usuli tadrish”ning ham amaliy, ham nazariy asoslarini ishlab chiqish, darsliklar va o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar yaratish uchun 1911-yili Istanbulga borgan va yangi usul maktablari muallimlari darslarida bo'lgan. Ahmad Midhat qalamiga tegishli “Xo'jayi avval” alifbosi va boshqa darsliklar bilan tanishgan hamda Turkistonga qaytayotganida kitoblardan bir necha nusxa, xarita va globuslar olib kelgan.

Abduqodir Shakuriy o'z maktabi faoliyatini tashkil etishda Sharq mamlakatlari tajribasidan unumli foydalanganini Mahmudxo'ja Behbudiy ham tasdiqlaydi: “Mulla Abdulqodir muallim va man bu tartib va programlarni tush ko'rub topganimiz yoki shaytondan va yo boshqadan olganimiz yo'q, balki gazeta ko'rduk va muallimi Ho'qand, Toshkand, Buxoro, Orenburg', Qozon shaharlarida yurub, ibrat olubdur, man bo'lsa mazkur shahar va diyorlarnida ko'rdim, Kafkaz, Istanbul, Misr, Hijoz shaharlaridagi eski va yangi maktab-madrasalarni ozgina muddat bo'lsa ham ko'rub, biroz tajriba hosil qildim”.

Abduqodir Shakuriy maktabi rivojlanib, o'quvchilar sonining ko'payib borishi N. Ostroumovni tashvishga solgan va Samarqand xalq maktablari noziri Grachkin bilan tintuv o'tkazgan. **Bu haqda keyinchalik Rahim Hoshim “Maorif va o'qitg'uchi” jurnalida Abduqodir Shakuriyga bag'ishlab yozgan maqolasida shunday ma'lumot bergan:** “Bu maktabning birinchi “muhibi” ma'lum missioner Ostroumov edi. Ul gazetasida har nechada xo'jalariga Shakuriy maktabini eslatar edi. Chunki Ostroumov Samarqandga kelganida, uni Turkiyadan kelgan xaritalar ortiq hurkitdi”.

Shunday qilib, Rossiya imperiyasi ma'muriyati jadidlar tashabbusi bilan iste'dodli yoshlarning Usmonli turk sultonligiga ta'lim olish uchun yuborilishidan vahimaga tushgan va doimiy ravishda taraqqiyparvarlarning faoliyatini kuzatib yurgan. Mustamlakachilar jadid maktablarini tekshirib, ularni yopish choralarini ko'rgan. Turkiston jadidlarining turk taraqqiyparvarlari bilan maorif sohasidagi hamkorliklarini cheklashga intilgan.

Dilnoza JAMOLOVA,
tarix fanlari doktori,
FA Tarix instituti direktorining
ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari
oyina.uz

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

4

Qamashilik ijodkor Tursunboy Boymirov xotiralaridan

Asli Dehqonobod tumanining tog'oldi Chuqurli qishlog'idanmiz. Taqdir taqozosi bilan 1971-yili Qamashining Odambormas dashtiga ko'chib kelandik. O'tgan asrning saksoninchi yillari, Qodir baxshining dovrug'i tog' oshgan davrlar edi. Yangi tarkib topgan qishlog'imizdagi to'ylarning biriga mashhur baxshi tashrif buyurishi haqida ovoza tarqadi. O'shanda Qodir baxshini yuzma-yuz turib eshitishni kim ham orzu qilmasdi deysiz. Qishloq ahli to'yxonaga oqib borardi. Ammo to'y yarimlay deganda ham baxshi davraga chiqavermadi. Odamlar bezovtalana boshladi:

– Biz to'yga qorin to'ydirish uchun emas, Qodir baxshini tinglash uchun kelganmiz.

– Qani Qodir baxshi?!

O'sha yillar to'yga katta san'atkor kelsa, bo'yni yo'g'on kattalar alohida davra qurib o'tirishi odat tusiga kirgandi. Bilsak, Qodir baxshi ham shunday alohida mehmonlarga xizmat ko'rsatayotgan ekan. Tashqaridagi g'ala-g'ovurni eshitgan baxshi gap nimada ekanini so'rabdi, to'y egalari haqiqatni aytishga majbur bo'lishibdi, shunda baxshi:

– Men elga xizmat qilish uchun kelgandim, quloqning qorni yo'q, sizlar bilan xayrlashishga majburman, – deb, sozini ko'tarib chiqib keldi.

Bo'ldi qarsak, bo'ldi olqish.

Baxshi olti soat tinimsiz kuyladi.

Ko'z yoshi sel bo'lmagan odam qolmadi.

Qodir baxshi chinakamiga daryo edi, u yanglig' san'atkorni keyin ko'rmadim, desam, ishonavering...

5

...Tomoshagohda suv sepgandek sokinlik hukmron, doston qo'shiqlari termaga ulanib ketar, baxshi har avjiga chiqqanda u yer-bu yerdan:

– Yashang, baxshi!

– Umringiz ziyoda bo'lsin! – degan xitoblar yangrar, men esa goh g'amgin, goh o'ynoqi ohanglar og'ushida xayolot dunyosiga sho'ng'ib, soz va so'z qudratini ayon etuvchi yana bir rivoyatni esladim:

“Bir kuni somoniylar davlati hukmdori Ismoil Somoniy mamlakat bo'ylab safarga chiqibdi. U sheriklari bilan tog'oldi Mo'liyon qishlog'iga kelgach, hayratdan dong qotibdi. Bu maskanda bog'-rog'lar yashnagan, chaman ichra bulbullar nola qilgan, odamlar bir-biriga xushmuomala, ko'ngilni og'ritguvchi biron narsa yo'q emish, shunda shoh:

– Raiyatimda bunday go'zal maskan borligini bilmagan ekanmen, endi menga toj ham, taxt ham kerak emas, umrim poyonigacha shu yerda oddiygina guzaron kechirishni ixtiyor etdim, – debdi.

Saroy ahli qancha yalinib-yolvormasin, hukmdor fikrini o'zgartirmabdi. Ular noiloj shohsiz arkonni davlatga qaytishga majbur bo'lishibdi. Yo'lboshchisiz qolgan mamlakatda bosh-boshdoqlik boshlanibdi. Ne-ne vazir-u vuzarolar, pir va shayxlar Mo'liyonga kelib, shohni taxtni egallashga rozi etolmabdi. Shunda kimdir:

– Abu Abdulloh Rudakiydan ko'mak so'rasak-chi, balki ul zoti mukarram hukmdorning yuragiga yo'l topib bilar, – degan taklifni o'rtaga tashlabdi.

O'shanda buyuk shoir saroy nazm ahliga yetakchilik qilibgina qolmay, o'zi yozgan g'azallarga o'zi musiqa bastalab, shiringina ovozda qo'shiq ham kuylar ekan.

Ko'pchilikning xohishiga ko'ra, mashhur shoir va baxshi qo'lga sozini olib, bir o'zi “Qaydasan, Mo'liyon?” deb yo'lga chiqibdi. U shoh qarorgohiga yaqinlashgach, otdan tushib, soziga ovozini jo'rlab, kuyidagi g'azalni baralla ovozda ayta boshlabdi:

Bo'yi jo'yi Mo'liyon oyad hame,

Yodi yori mehrubon oyad hame.

Mir moh astu Buxoro osmon,

Moh so'yi osmon oyad hame.

(Ma'nosi: ana Mo'liyon anhorining kishini sarmast qilguvchi ifori kelmoqda, bu ifor mehrubon yorning nafasi, yodini olib kelmoqda. Agar podshoh oy bo'lsa, Buxoro osmondir, oy osmon tomon kelmoqda).

Ushbu g'azalni eshitgan shohning yodi xayoliga yurt, yor-u birodar vasli tushib, yurakdan chuqur oh urib, bir oyog'iga choring'ini tortib, ikkinchisi yalang holda otga minib, Buxoro sari yo'l olgan ekan...”

...Baxshi yurt ozodligi va obodligi uchun kurashgan Alpomish, Kuntug'mishdek mardlarni ta'rifladi. Kuylaganda ham xo'b va ko'p kuyladi, so'ngra...



“Kel-ey, sozim, so'zlashaylik” (esse)

...So'ngra esa ovozini baralla qo'yib, istiqbol, yurt istiqboli, unga jonfido kishilarni madh etishga tushdi...

6

...Yillar karvoni iz solib o'taverdi. Kunlardan bir kun Qahhor qismatiga baxshilikning noni yozilganini dildan his qildi.

Qahhor baxshi xotiralaridan


Otam haqida gapirmay qo'yaqalay, onamning allasini bir eshitsangiz edi. Bu ovozda onalarga mos mehr-muhabbat, ayollarga xos mung, dillarni o'rtaguvchi ohang bor edi. Onam alla aytganlarida qo'ni-qo'shnilar ham, shu yaqindan o'tib borayotganlar ham eshikdan sezdirmay qarab turishar ekan. O'zimizning qishloq-ku mayli, hatto qo'shni qishloqlardan ham onalar yig'loqi bolalarini olib kelib, enamga alla aytirishardi. Maktab borib, savodim chiqqanidan so'ng men “o'g'ri”ga aylandim. Yo'q, bu birovlarining mol-holini o'marish ma'nosidagi o'g'irlik emas edi, otam ishga ketishlari bilan astagina, hatto onamga ham sezdirmasdan u kishining xonalariga kirib olar, tun bo'yi qilgan ijodlarini o'qir, davomini yozishlarini sabrsizlik bilan kutardim. Ayni o'sha kezlarda men o'qiganlarim ta'sirida do'mbira chertib, xirgoyi etishni odatga aylantirdim. Gapning sirasi, qulog'im otam chertgan do'mbira ohanglari bilan ochildi, g'azalxonligim onamning allasidagi nolalarni eshitib shakllandi, baxshiligim “Alpomish”ni tinglab, yuz ko'rsatdi. Ayy, birodar, ishonsangiz, “Alpomish” katta maktab ekan, mukammal maktab ekan. Baxshi bo'laman, degani uni tinglab, misralarini yod olib, ohanglariga jo'r bo'lib, shu yo'lga tetapoya qilar ekan. Men ham “Alpomish” bilan davralarga kirib keldim. Otamning yetovida, u kishi aytgan dostonlarni, u kishi ijod qilgan termalarni kuylab, asta-sekin el dilidan joy topib bordim:

*Qiziq ekan bu dunyoning ishlari,
Kuzda ketib, bahor qaytar qushlari.
Navbat kutmas ekan qari-yoshlari,
Qari yoshga, yosh qariga mehmondir...*

...Baxshi-shoirlar bashoratgo'y bo'ladi deyishadi, ehtimol, bu gapda jon bordir, balki dovrug'i olamga taralgan Qodir baxshi ushbu misralarni sadafdek tizganida o'zining ham bu ko'hna dunyoga mehmon ekanini, umr o'tkinchiligini muxlislariga ayon etgandir. Ammo bu vido onlari shu qadar yaqin ekanini, Qodir baxshi ellik yoshga ham to'lib-to'lmay, bu ko'hna dunyoni tark etishini na uning to'ng'ich zurriyoti – Qahhor va uning uka-singillari, na baxshining do'st-birodarlari, na olis-yaqindagi ming-minglarcha shinavandalari bilishardi. Mashhur baxshi 1986-yil 29-avgust kuni avtohalokat tufayli yorug' dunyoni bevaqt tark etganida, ellik yoshni to'ldirishiga bor-yo'g'i sakkiz oy, sakkiz oygina vaqt qolgandi...

(Davomi keyingi sonda)

Abdunabi ABDIYEV



Asl milliy qadriyatlar umuminsoniy mohiyatga ega

An'analar, udumlar, sayil-tomoshalar, o'yin-bellashuvlar xalqning ma'naviy va jismoniy quvvatini o'zida jamlab, yagona o'zanida birlashtiruvchi daryodir. Suyak surib, avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan bu qadriyatlar muayyan davrlarda davradan chiqqandek – o'rnini boshqa mashg'ulotlarga bo'shatib bergandek ko'rinsa-da, imkoniyat tug'ildi deguncha, avvalgidan ham yuksak sha'n-u shavkat bilan maydonga chiqadi. Kurash – o'zbekning shunday abadiy boyliklaridan, asl qadriyatlaridan biri.

Kurashning qanchalik qadimiyligini isbotlayman deb, manbalar qidirish shart emas. O'z qat'iy tartib qoidalariga ega bo'lgan Farg'onacha va Buxorocho deb nom olgan ikki turni ko'z oldingizga keltiring, birgina buxorocho yo'lining besh yuzga yaqin usuli mavjudligining o'ziyoq o'zbek zuvalasining kurash duosi o'qib iylanganligiga dalildir.

Bu kun urf bo'lgan sport turlarining ko'pidan farqli o'laroq kurash uchun o'zbekka maxsus ustoz, mehnatdan, ro'zg'ordan uzilgan holda bajariladigan tinimsiz mashq shart emas. Irsiy xotira – qon orqali o'tgan xotira har qanday o'zbekni, har qanday sharoitda kurashchiga aylantiradi. U harifi bilan bel tutishsa bas, shu paytgacha bilishini o'zi ham sezmagani kurash usullaridan biri ixtiyoriy kelib, davra hadisini olgan polvonlardek olisha ketadi.

Dunyoda "sportning ommaviy turi" degan gaplar bor. Bu har bir xalqda har xil tusda namoyon bo'ladi. Aytadilarki, Braziliya degan mamlakatda bolalar futbol to'pi bilan birga tug'ilar emish. Yapon deganda karate, koreys deganda taekvondo yodga tushadi. **O'zbek uchun kurash aslida shunday – tug'ma, milliy hodisa.** Mashhur kurashchilar sulolasining vakili, irsiyatshunos olim, professor Jo'raqul Tursunov bir suhbatda aytgan edi: "Hali tetapoya ham bo'lib ulgurmagan ikki o'zbek bolasini yuzma-yuz turg'azib

davraga qo'yilsa, ular beixtiyor oyoq-qo'llarini kurash usullariga mos harakatlarga chog'laydi..."

"Qonda bor" deganlari shu bo'lsa kerak. Bu yuz yil, ming yilning mahsuli emas. "Qonda bor xotira" ming-ming yillarda hosil bo'ladi.

O'zbekning kurashi joy tanlamaydi. Yosh ajratmaydi. Yiqilganni yer ko'taradi deb, har kim o'z harifini topib, davraga tushaveradi. **Kurash sporti san'atga, or-u nomus, milliy g'urur mezoniga aylangan.**

Azal-azaldan bizning ajdodlarimiz Tangrining askarlari bo'lganlar. Mahmud Koshg'ariy bobomiz shunday yozganlar: "...Ibn ul G'arqiy degan odam ash-Shayx Abu Bakr il mufid ul Jarjaroyning oxirzamon haqidagi kitobida payg'ambardan shu hadisni rivoyat qiladi: "Ulug' Tangri aytadi: "Ming bir toifa askarim bor, ularni turk deb atadim..." **Ota-bobolarimiz ot minib, yoy tortib, bel olishib, yer yuzida qanchadan qancha saltanatlar qurgan.** Ellarning boshini qo'shib, tartib o'rnatib, tuzuklarini yurgazib, insoniyat kamolining pillapoyalariga poydevor – imkon yaratish uchun o'z quvvatlarini bag'ishlaganlar. Bu ulug' ishlarni bajarishda, quvvatlarini ezgu murod-maqсадlar o'zaniga qarab burishda kurash muhim ahamiyat kasb etgan edi.

Xalq alplarining timsoli – Go'ro'g'li ham kurash tufayli Go'ro'g'li sulton bo'ldi. Go'ro'g'libekka kurashni Hazrati Xizr o'rgatgan edi.

"Bobosi aytdi:

– Mahkam ushla, qulog'ingga ol, ehtiyot bo'l, armonda qoldim, dema! Biz sen taraf, lekin bizdan boshqa bilan kurashganda, unday qilib ushla, bunday qilib ol, to'g'anoqni bunday sol! Orqasiga bunday qilib qayir! Buytib siltab ot! Goh ilgari, goh keyinga sur! – deb kurashdi..." "Go'ro'g'lining tug'ilishi va bolaligi" an'anaviy dostonidagi bu tasvir shunchaki xabar emas, balki kurashning ilohiy asosiga ishoradir.

Kurash – o'zbekka Tangrining tuhfasi. Shu sababli ham kurashda anglab yetib bo'lmas sirli bir qudrat yashirin. Shu sababli ham ushoqday jussa davraga tushsa, devqomat bo'ladi.

Shu sababli ham polvon davraga tushib, "Yo Xudo!" deb na'ra tortib, o'zgacha bir quvvat olib, o'zga bir olamga o'tadi. Bu jo'sh-xo'rush, jazava holatidir. O'zlikni namoyon qilish uchun vositadir. O'zlikni namoyon qilish esa inson umrining maqsadidir. Dehqon, chorvador, bastakor, shoir. Boring, jamiki hunar egasi ushbu holat olamiga o'ta olsa, chinakam san'at voqe bo'ladi. Kurash ommaviy hodisa, sport turi sifatida tobora chuqur ildiz yoyar ekan, bu millatning, xalqning, insoniyatning o'zini ifodalash, mujassam qilish omili sifatida namoyon bo'ladi. Kurashga xos hayotiylik, abadiylikning doimo yangilanib turadigan falsafaning asosi shu yerda bo'lsa kerak.

Shu sababli ham polvonning nomi davrada tutilmaydi. Irim qilinadi.

Shu sababli ham Tangri har bir polvonga bir ilohiy usul in'om etadi. Buni keksalar: **"polvonning joni qisilib kelsa, qo'llaydigan usuli bor"** – deyilar. Har qanday pahlavonni shu bir usul bilan mag'lub etsa bo'ladi.

Shu sababli ham polvonlar o'z usuli bilan ataladi: "Orqach polvon, Tikto'g'anoq polvon, Elkach polvon", deb.

Kurashning uch turi (1. Tomosha kurashi. 2. Musobaqa kurashi. 3. Jang kurashi) el orasida polvonlarni saralash bilan birga, xalqning or-nomusi, sharafi, taqdirining himoyachilarini tarbiyalovchi maktab vazifasini o'taydi.

O'zbekda yetti yoshdan yetmish yoshgacha kurashgan, bu xalqning sog'lig'i, quvvatining doimo uyg'oq turishi demakdir. Bu muntazam mashq qilib turgan tayyor lashkar zaxirasi demakdir.

Endilikda bizni: "Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q", degan maqol sergak torttirmoqda. Biz uzoq vaqt eng katta boyliklarimizdan hisoblanmish – xalq sog'lig'ining garovi bo'lmish kurashimizga bee'tibor bo'ldik. Kurashning qadri, nufuzini o'z o'rniga qo'ya bilmadik, davrning, asrning talablari darajasida ommaviyligini ta'minlamadik.

XX asrda dunyo shiddat bilan o'zgardi. Vaqt. Masofalar qisqardi. Ellar, millatlar, tillar, davlatlar, madaniyatlar yaqinlashdi. Bir-birini tanish, bilish jarayoni tezlashdi. Ko'p vositalar qatori, sport ham bu yo'lda o'z xizmatini o'tadi. Bu kun dunyo miqyosida qanchadan qancha musobaqalar o'tmoqda. Qanchadan qancha nufuzli sport tashkilotlari mavjud.

Ayni vaqtda dunyoda yetmishdan ortiq sport turi xalqaro maqom olgan. Ular ta'bir joiz bo'lsa, "osmondan tushgani yo'q", albatta. Ommalashib, targ'ib, tashviq qililib, shu miqyoslarga ko'tarilgan. Taassufki, ularning orasida ancha vaqtlar bizning kurashimizning o'rni bo'sh turdi... Endilikda e'tirof qilinib, dunyo tan oldi. Yana bir o'ylaydigan joyi shundaki, kurashimizdan o'sib chiqqan, undan umurtqa olgan "sambo", "erkin kurash" hamma yerda ma'lum-mashhur-u, o'zbek kurashi to'ylarimiz davrasidan chetga chiqmay kelgani bir jihatdan kishiga alam qiladi.

Suhbatdoshim marhum kurashchi va olim Jo'raqul Tursunov bundan ancha oldin kuyinib shunday degan edi:

"Men karate vatani deb atayotgan yaponiyalik mutaxassislar bilan ko'p gaplashdim. Ular kurashida ikki nuqta: qo'l va oyoq ishlatiladi. Bizda esa to'rt nuqta: qo'l, oyoq, bosh, ko'krak barobariga harakatga keladi. Yaponlar bizning kurashimizni avvaldan qiziqib, o'rganib keladilar, o'zlarida joriy etmoqdalar. Faqat bu ishlar imi-jimida bo'lmoqda. Biz o'z boyligimizni ko'z-ko'z qila olmayapmiz. Haligacha xorijiy qiziquvchilarga moslab qo'llanmalar yaratilmagan. Hozirgi davr talablariga mos ilmiy-nazariy kitoblar yo'q. Ahvol shu holda ketsa, bu boyligimizning xomtalash qilinishiga yo'l ochib bergan bo'lamiz". **Jo'raqul polvonning orzulari endilikda amalga oshmoqda. Nasib etsa, bundan-da ulug'larini ko'rarmiz...**

Zero asl milliy qadriyatlar hamisha umuminsoniy mohiyatga ega bo'ladi.

Shomirza TURDIMOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

“

**“O‘zbekiston – 2030”
strategiyasida mamlakatimiz
xavfsizligi va hududiy
yaxlitligini, jamiyatimizda
tinchlik va totuvlikni ta‘minlash,
yurtimiz mudofaa qobiliyatini
yanada mustahkamlash
va Qurolli Kuchlarimizni
rivojlantirish masalalari ustuvor
yo‘nalishlar etib belgilangan.**

mas‘ul ofitserlari ishtirok etgan tantanali tadbirda so‘z olganlar yurt himoyasini o‘z burchi deb bilgan Vatan posbonlari ushbu yangi xonadonlarda o‘z oilalari bilan tinch va farovon turmush kechirishlarini tiladi.

Xonadon kalitlari o‘z sohiblariga topshirilgach, ramziy tasmalar kesilib, mehmonlar bu yerda yaratilgan shart-sharoit va qulayliklar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ldi.

Katta leytenant Faxriddin Xosilovlar oilasi ham ana shunday baxtli oilalardan biri sifatida endilikda yangi, zamonaviy xizmat xonadonida istiqomat qiladigan bo‘ldi.

– So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan harbiy xizmatchilar uchun juda katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Biz jangovar-xizmat faoliyatimizni tog‘li hududda olib boramiz. Albatta, bunday yerlarda davlat chegarasini qo‘riqlashning o‘ziga xosliklari

kechirib, kelajakda yurtimiz ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘shadigan barkamol avlodlarni tarbiyalaymiz, – deydi katta leytenant Faxriddin Xosilov.

Shu kuni sharaflı kasb sohiblarining umr yo‘ldoshlari qalbida kechgan cheksiz shodlik va hayajon ham ularning dil izhorlarida o‘z ifodasini topdi.

– Bugungi quvonchli kunda DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilarining turmush o‘rtoqlari safida ekanimdan faxrlangan holda shuni aytmoqchimanki, orzumdagi xonadon sohibasi bo‘lganimdan juda ham baxtiyorman. Bizga ko‘rsatilayotgan bunday g‘amxo‘rlik va e‘tibor uchun barcha chegarachilarning turmush o‘rtoqlari nomidan Yurtboshimizga o‘zimning chuqur minnatdorigimni izhor etaman, – deydi Dilafro‘z Xosilova.

Albatta, yurt himoyachilari uchun yaratilayotgan bu kabi sharoitlar ularning

Ijtimoiy himoya namunasi

Shu asosda bugun milliy armiyamiz mamlakatimiz taraqqiyoti, tinchligi va barqarorligining ishonchli kafolatiga, chinakam jasorat va matonat maktabiga aylanib bormoqda.

Ayni damda qo‘shinlarning harbiy-ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirib, jangovar shayligini oshirish, ularni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta‘minlash, jangovar-xizmat faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish barobarida, yurt himoyachilari va ularning oila a‘zolari ijtimoiy himoyasini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar alohida e‘tirofga sazovor.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy qism va bo‘linmalarida ham sarhadlarimiz posbonlari uchun munosib xizmat va turmush sharoitlarini yaratish borasida qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

bor. Ana shunday sharoitda biz uchun barcha qulayliklarga ega, keng, yorug‘ va shinam xonadonlarning qurib berilishi kuchimizga kuch, g‘ayratimizga g‘ayrat qo‘shib, bizni yanada yangi marralar sari ruhlantirmoqda. Ushbu xonadonda oilamiz bilan baxtli hayot

ko‘ngil xotirjamligiga sabab bo‘lishi bilan birga, zimmalariga katta mas‘uliyatni ham yuklab, Vatanimiz sarhadlari daxlsizligini ta‘minlashda metin bardosh va mustahkam iroda sohiblari bo‘lishlariga undashi, shubhasiz.



Xususan, Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanidagi bo‘linma harbiylari va ularning oila a‘zolari uchun barpo etilgan yangi xizmat xonadonlarini foydalanishga topshirish marosimi ham quvonchli onlar va unutilmas lahzalarga boy tarzda o‘tdi.

Karnay-surnaylar sadolari ostida boshlanib, Bo‘stonliq tumani hokimi o‘rinbosari va “Nanay” mahalla fuqarolar yig‘ini faollari hamda DXX Chegara qo‘shinlari qo‘mondonligi



Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo‘shinlari

XXI asrga insoniyat faoliyatining barcha sohaları kabi harbiy sohada ham intellektual qobiliyatlarning o'zni yuksalib borishi tendensiyalari ostida kirib keldi. Shuning uchun ham sohada qabul qilinayotgan buyruq va direktivalarda harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, qobiliyatlarini rivojlantirish, sifatlarini takomillashtirish kabi vazifalar qo'yilmoqda. Mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyatini hamda o'zaro nisbatini aniqlab olish maqsadida qiyosiy tahlilni amalga oshirdik.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida intellektga "o'zida – insonning aqliy qobiliyati, hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati, turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati kabi xususiyatlarni qamrab oladi", deb ta'rif berilgan.

Shu bilan birga, intellektual salohiyat intellektual sifatlardan tashkil topib, uning insonlarda namoyon bo'lishi intellektual qobiliyatni tashkil etadi.

Intellektual sifat bu – psixologik xususiyat bo'lib, faoliyatning samarali amalga oshishi uchun mavjud muammolarning muvaffaqiyatli yechimini va o'rab turuvchi muhitga tez moslashishiga xizmat qiladi. Intellektual sifatlar tahliliy va prognozlash qobiliyati, mustahkam xotira, takomillashgan tasavvur etish, ziyrak kuzatuv, so'z boyligi va fikrlarning yorqin ravishda yozma va og'zaki bayon etish layoqatini o'zida jamlaydi.

Xususan, V. Kelle intellektual sifatlar qatoriga sinchkovlik, teran aql, uning egiluvchanligi va harakatchanligini, mantiqiy, tanqidiy va aniq fikrlash kabilarni kiritib, ushbu sifatlar bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldirsa-da, ularning o'ziga xosligi ham mavjudligini e'tirof etadi.

Bunda sinchkovlik u yoki bu voqea, hodisaning muhim jihatlari har tomonlama va chuqur o'rganishga intilishdir. Bu harbiy xizmatchiga sodir bo'layotgan voqea, hodisalar kimnidir manfaati uchun xizmat qilayotganligini, yolg'on yoki haqiqatdan ham sodir bo'lganligini aniqlash imkoniyatini beradi hamda harbiy xizmatchi faoliyati davomida, bir butun ta'riflaganda hozirgi kunda axborotlarni tez tarqalib ularning turli talqinini mavjud bo'lgan voqea-hodisalarning o'ziga xos va muhim jihatlari bilib olishga xizmat qiladi.

Teran aql mavjud muammo va vazifalardan eng dolzarbini anglab olish qobiliyatini o'zida qamrab oladi. Harbiy xizmatning kun sayin o'ta murakkablashib borayotgan bir davrida, uning oldidagi vazifalar yechimida bir necha ehtimoliy variantlarni inobatga olib, ular orasidan eng maqbullarini tanlab olish va qo'llashda bu sifatning o'zni beqiyosdir. Uning egiluvchanligi

va harakatchanligi – egallagan tajribadan foydalangan holda, jangovar va kundalik vazifalar yechimidagi odatiy yondashuvdan voz kechib, vaziyatni tezkorlik bilan o'rganib, zudlik bilan qaror qabul qilishda qo'llashimiz mumkin.

Mantiqiy fikrlash muammo va vazifalarning o'ziga xos xususiyatlari va barcha muhim jihatlari e'tiborga olgan holda qat'iy ketma-ketlik asosida mulohaza yuritish bilan tavsiflanadi. Ushbu sifat ayni davrda o'ziga xos ahamiyat kasb etib, harbiy xizmatchilar qarashlaridagi bir tomonlama fikr yuritishdan cheklanib, muammoni har tomonlama o'rganib, muayyan ketma-ketlik asosida fikr yuritishga undaydi. Jumladan, ushbu qobiliyat mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatni o'rganishda, ayni kundagi holati va rivojlanish tendensiyalarini aniqlab olish, ehtimoliy jang olib borish uchun eng maqbul va samarali rejalarini ishlab chiqish, jang maydonida esa turli manyovrlarni qo'llagan holda dushmanga talafot yetkazish va uni yo'q qilishda qo'l kelishini ta'kidlash o'rindidir.

Tanqidiy fikrlash aqliy faoliyat natijasida qabul qilingan qarorlarning qat'iy ravishda baholay olishni hamda u qo'yilgan vazifaga mos kelmasa, noto'g'ri qarorlarni aniqlab, ularni chetga surishni ko'zda tutadi. Harbiy xizmatchilar oldida turgan murakkab vazifalarning turli yechimi mavjudligida ular orasidan oqilonasini tanlab olish hamda atrofdagi voqea-hodisalarning turli talqini mavjudligi sharoitida, olingan axborotning asoslanganlik, ishonchlilik va xolislik kabi mezonlar asosida tekshirib ko'rib, zarur qarorlar qabul qilishda mazkur sifat qo'l kelishi mumkin. Shu bilan shiddatlilik va vaziyatning tez o'zgaruvchanligi bilan tavsiflanuvchi jangovar faoliyatda ushbu sifat vaziyat talabidan kelib chiqqan holda dastlab qabul qilingan qarordan voz kechishga hamda o'zgaragan holatga mos qaror qabul qilishga asos bo'lishi mumkin.

Aniq fikrlash muammoga taalluqli barcha ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda uni to'liq qamrab olish hamda yechimining bir necha variantlarini ko'ra bilish qobiliyatidir. Ma'lumki, obyektiv voqelikdagi har bir hodisa o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega.

Harbiy xizmatchining intellektual qobiliyati va uning tizimdagi o'zni

Bu belgi va xususiyatlar hodisalarni bir-biridan farqlashga, ularning o'ziga xos tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, voqea va hodisalarning inson tafakkurida aniq aks etishini, har bir fikr, mulohazaning aniq, ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Bu kabi qobiliyatning harbiy xizmatchilarda namoyon bo'lishi, ko'p hollarda boshqaruv lavozimida xizmat olib boruvchi harbiy xizmatchilar faoliyatida qo'l keladi. Chunki harbiy xizmatning kundalik turmushida bo'ysunuvchilar bilan bog'liq bo'lgan turli muammolar mavjudki, ularning yechimini har tomonlama o'rganib, obyektiv qaror qabul qilishda xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, **inson faoliyatining muvaffaqiyatlilik uning qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liqlikda bo'lib, qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi faoliyat mahsuldorligining muhim omillaridan biri sanaladi.** Shaxsning o'ziga xos xususiyati sifatida namoyon bo'ladigan intellektual qobiliyat ham faoliyatning samarali amalga oshishi, unda vujudga kelishi mumkin bo'lgan yoki mavjud muammolarning muvaffaqiyatli yechimini topishga imkon yaratish bilan birga insonning atrof-muhitga tez moslashishini ta'minlaydi. Bunda yuqori intellektual qobiliyat harbiy xizmatchiga vaziyatning rivojlanish qonuniyatlarini teran anglash, muammoli sharoitda ham voqea-hodisaning

rivojlanish tendensiyalarini oldindan ko'ra olish va bir necha yechimini taklif etish imkonini berishi mumkin.

Psixologiya fanlari doktori V. Shadrikov "xususiyat" va "qobiliyat"ni bir-biriga aynan tushuncha sifatida ko'rib, "qobiliyat narsaning (*tizimning*) faoliyati jarayonida namoyon bo'ladigan xususiyatlar yoki xususiyatlar majmuini tashkil qiladi", deb ta'kidlaydi. Demak, intellektual qobiliyat – bu ayrim psixik voqelikning xususiyati bo'lib, inson tomonidan ma'lum bir vazifaning bajarilishi holatida namoyon bo'ladi va bu faoliyat ko'rinishining samaradorligi ko'rsatkichi sifatida qayd etiladi.

Harbiy faoliyatda vaziyatning tez o'zgarishi, ziddiyatli axborotlar asosida shoshilinch qaror qabul qilish zaruriyatining mavjudligi, vaziyatning rivojlanish tendensiyalarini va ehtimoliy raqib harakatlarini oldindan prognoz qilmasdan turib qabul qilingan qarorning og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligi mazkur faoliyatda intellektual qobiliyatlarning muhim ahamiyat kasb etishiga yorqin dalildir. Shu sababli inson intellektual qobiliyatining tuzilishini aniqlab olib, ularning har birining harbiy faoliyatdagi o'rini belgilab olish nafaqat kasbiy tanlov, balki harbiy ta'lim tizimining maqsad va vazifalarini konkretlashtirib olish imkonini berishi mumkin.

V. Drujinin va N. Xazratovalar intellektual qobiliyatlarni umumiy qobiliyatlar nazariyasi asosida o'rganib, uni uchga, ya'ni psixometrik intellekt (*mavjud bilimlarni qo'llagan holda vazifalarni bajarish qobiliyati*), kreativlik (*tasavvurlar ko'magida mavjud bilimlarni takomillashtirish qobiliyati*), bilimlarni egallay olish (*o'rganish qobiliyati*)larga ajratadi. Professor M. Xolodnaya yuqorida zikr etilgan olimlarning g'oyalari yanada konkretlashtirib, intellektual qobiliyatlarni to'rt, ya'ni konvergent va divergent qobiliyatlar hamda bilimlarni egallay olish va bilish uslublariga ajratib tadqiq etadi.

Bunda konvergent qobiliyatlar axborotni qayta ishlash jarayoni samaradorligi ko'rsatkichlarida namoyon bo'lib, birinchi navbatda vujudga kelgan vaziyatga va uning talablariga mos javobning to'g'ri va o'z vaqtida qabul qilinishida ko'rinadi. Bunda konvergent qobiliyatlar reglamentlashtirilgan faoliyat sharoitida individual intellektual xulqning muvaffaqiyati nuqtayi nazaridan shaxsiy intellektning moslashish imkoniyatini tafsiflaydi. **Mazkur qobiliyat turi harbiy xizmatchi uchun jangovar va o'quv jangovar vaziyatda zarur ahamiyat kasb etadi.** Xususan, jangovar vaziyatning keskin o'zgarishiga mos xulqda aniq namoyon bo'lsa, o'quv-jangovar faoliyatda maxsus yaratilgan sharoitlarda vaziyatning samarali yechimini topa olishda ko'rinadi.

Konvergent qobiliyatlar intellektning uch xususiyatini o'zida jamlaydi.

Birinchisi, intellektning darajali xususiyati – bilish jarayonining asosi sifatida namoyon bo'lib (*sensorli farqiga borish, idrok qilish jadalligi, makoniy tasavvurlar bilan ishlash, mustahkam xotira, diqqatni bir joyga jamlay olish va taqsimlash, ma'lum bir faoliyat yuzasidan xabardorlik, so'z boyligiga egaligi, fikrlarini yozma va og'zaki erkin bayon eta olish layoqati*), bilishning (*verbal va nonverbal*) rivojlanish darajasi egallanganligi bilan tavsiflanadi.

Ikkinchisi, intellektning kombinatorlik xususiyati – tizimdagi turli darjadagi aloqalar, munosabatlar va qonuniyatlarni aniqlab olish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Intellektning protsessual xususiyati – axborotni qayta ishlash jarayoni va intellektual faoliyatning usullari hamda strategiyasi bilan tavsiflanadi.

Yuqorida qayd etilgan intellektning xususiyatlariga asoslanib, konvergent intellektual qobiliyatlar intellektual faollikning asosiy jihatlari sifatida e'tirof etilib, faoliyatning belgilab berilgan talablari va sharoitlariga mos keluvchi aniq natijalarni izlashga yo'naltirilgan, deb xulosa chiqarish mumkin.

Divergent (*kreativ*) qobiliyatlar bu faoliyatning reglamentga solinmagan sharoitida turli g'oya, fikr va takliflar ishlab chiqa olish qobiliyatidir. Kreativlik tor ma'noda divergent fikrlash bo'lib, o'ziga xos jihati esa turli g'oyalar, fikrlar, takliflarni ilgari surishga tayyorligi bilan farqlanadi. Kreativlik keng ma'noda ijodiy intellektual qobiliyat hisoblanib, shu jumladan amaliyotga muhim yangiliklar kirita olish, "yangi muammo paydo bo'lgan vaqtda yoki vazifalarni bajarish davrida noyob g'oyalarni yarata olish", vaziyat yuzasidan kamchilik va ziddiyatlarni aniqlab, o'z o'rnida kamchilik sifatida qayd etilayotgan elementlarning farazini shakllantira olish, "stereotiplarga asoslanib fikr yuritishdan voz kecha olish" qobiliyatidir. Divergent qobiliyatlarining harbiy faoliyatdagi o'rni, ayniqsa XX asrning oxirgi choragidan boshlab osha boshlaganini ta'kidlash o'rinlidir. Buning asosiy sababi sifatida zamonaviy jang taktikasining o'zgarishi hamda shablonga asoslangan jang usulidan voz kechilishini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Bilimlarni egallay olishning ikki turi mavjud bo'lib, ular ayri neyrofiziologik mexanizmlar va bilim egallashning turli usullariga asoslanadi. Ya'ni **birinchisi eksplitsit o'rganish** – bunda o'rganish axborotni qayta ishlash jarayonini ixtiyoriy, ongli ravishda nazorat qilish asosida amalga oshiriladi, **ikkinchisi, implitsit o'rganish** – bunda o'rganish beixtiyor amalga oshirilib, yangi faoliyatni o'zlashtirib borish sharoitida axborot va kerakli malaka doimiy ravishda to'planib boradi. Eksplitsit o'rganishni harbiy faoliyatda, ayniqsa harbiy ta'lim va o'z-o'zini takomillashtirish jarayonida asosiy o'rganish turi sifatida ko'rsatish mumkin.

So'nggi yillarda intellektual faoliyatning individual xususiyatlarini tadqiq etishga nisbatan qiziqish faollashib, "bilish stili (*uslub*)" tushunchasi ko'p qo'llanila boshlandi.

Ingliz olimi G. Uitkin "bilish stili" tushunchasini voqelikning o'ziga xos jihatlari hamda stilni qobiliyatdan ajratuvchi quyidagi tavsiflarni taklif etadi.

1. Qobiliyat intellektual faoliyatning erishilgan darajasi bilan tavsiflanadi. Stil esa intellektual faoliyatni amalga oshiruv usuli sifatida namoyon bo'ladi. Shunga asosan, vazifalarni bajarishda turli uslublar bir xil yuqori natijalarni berishi mumkin.

2. Qobiliyat – unipolyar o'lchash, ya'ni qobiliyatning ko'rsatkichlarini vertikal shkala bo'yicha minimumdan maksimumgacha joylab chiqish. Stil – bipolyar o'lchash, ya'ni uslubning ko'rsatkichlari ikkita gorizontaal shkalalarda joylashtiriladi.

3. Qobiliyat qadriyatdir. Chunki inson qobiliyatlarining rivojlanishi doimo u uchun ijobiydir. Stil fenomenini esa baholash qabul qilinmagan.

4. Qobiliyat vaqt nuqtayi nazaridan o'zgarib turadi. Stil insonning nisbatan barqaror tavsifidir.

5. Qobiliyat ma'lum faoliyat mazmuniga xos bo'ladi. Stil esa turli psixik faoliyatlarda umumiy ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Rus olimasi M. Xolodnaya bilish stilini klassifikatsiya qilib, ular orasida axborotni kodlash, kognitiv, intellektual va epistemologik stillarni farqlab ko'rsatadi.

Axborotni kodlash bu individual o'ziga xos ravishda axborotni taqdim qilish stili bo'lib, tajribaning (*eshitish, kinestetik, hissiy-emotsional va boshq.*) modalligi dominantligiga bog'liq ravishda axborotni taqdim etishdir.

Kognitiv stil bu joriy vaziyat haqida axborotni qayta ishlashning o'ziga xos stili. Bu o'zida axborotni qabul qilish, tahlil etish, dolzarbligini aniqlash kabilarni jamlaydi. Bugungi kunda adabiyotlarda kognitiv stillarning yigirmadan oshiq turi tahlil etilgan. Masalan, **"makonga bog'liq" va "makonga bog'liq bo'lmagan" kognitiv stil.** Makonga bog'liq stil vakillari voqelikni baholashda yaqqol ko'rgan taassurotlarga ishonishadi va makondan chiqa olmagaliklari sababli vaziyatni chuqur tahlil qilish va tizimlashtirishda qiyinchiliklarga uchrashadi. Makonga bog'liq bo'lmagan stil vakillari buning aksi o'laroq, o'z tajribalariga tayanishadi va makon ta'sir doirasidan tez chiqib ketib, voqea-hodisalar orasidan zarurini tezda anglab, ajratib oladi.

Impulsivlik va reflektivlik. Impulsiv stildagi insonlar voqea-hodisalar yoki ma'lum bir muammo yechimiga nisbatan tezroq farazlarni ilgari surishadi, ammo xatoliklar ehtimoli juda yuqoridir. Reflektiv stilida buning aksi o'laroq qarorlar sekin qabul qilinadi va xato ehtimoli ham kamdir.

Tor va keng ko'lamli ekvivalentlik. Tor ko'lamli ekvivalentlikda fikrlovchilar vakillari obyektning tashqi ko'rinishida farqlashga moyil hisoblanib, ularning detallari va farqli belgilariga asosiy e'tiborni qaratishadi. Keng ko'lamda fikrlovchilar esa yuqoridagilarni teskari hisobda, obyektlarning o'xshash jihatlari asosiy e'tiborni qaratib, umumlashmalar asosida ularni tasniflaydilar.

Kognitiv soddalik va murakkablik. Ayrim insonlar voqelikni ma'lumotlar yetarli bo'lmaganligi sababli soddalashtirilgan shaklda tushunishadi va talqin qilishadi. Boshqalari esa voqelikni turli shakllarini yaratib, boshqa narsalar bilan bog'liqliklarni asos qilib ko'rsatib, uning ko'p o'lchamli modelini yaratishga moyildirlar.

Intellektual stil muammoni aniqlash va uning yechimini ishlab chiqishdagi individual o'ziga xoslikdir. Bu borada R. Stenberg kasb tanlashda namoyon bo'ladigan va faoliyatning samarali kechishini ta'minlashga yordam beruvchi, nomzodlarni kasbga munosibligini ta'minlovchi intellektual stilni tadqiq etib, ularni qonun chiqaruvchi, ijrochi va baholovchi stillarga ajratib ko'rsatadi.

Qonun chiqaruvchi stil. Ushbu stil vakillari o'zlarining intellektual faoliyati davomida barcha uchun odatiy bo'lgan me'yor va qoidalarni inkor etishadi. Muammoni yechimi talab etilganda ular, hatto o'z tamoyillaridan ham voz kechishga tayyordirlar. Ularni tafsilotlar qiziqitirmaydi. O'z g'oyalari asoslanib faoliyat yuritish uchun va muammo yechimiga yangi yondashuvlarni o'zlari ishlab chiqish uchun imkoniyat mavjudligi sharoitida o'zlarini erkin his qilishadi. Bu stil vakillari o'z qobiliyatlarini ijodiy kasblarda yorqin namoyon etishadi va ulardan olimlar, yozuvchilar, san'atkorlar, arxitektorlar va tadbirkorlar yetishib chiqishi mumkin.

Ijrochi stil. Bu stil vakillari umume'tirof etilgan me'yorlarga asoslanib faoliyat yuritishadi, tartib va qonunlarni ijrosini ta'minlashga moyildirlar, mavjud muammolarni amaldagi vositalar yordamida yechishadi. Yuqorida qayd etilgan stilda faoliyat yuritish asosan advokat,

huquqni muhofaza qilish organlari vakillari, hisobchi, harbiy, menejer kabilarga xosdir. Harbiy faoliyat o'zining yuqori darajada strukturalashgani bilan ajralib turadi. Shu sababdan harbiy xizmatchi uchun avvalambor nizomlarda belgilab qo'yilgan vazifalarni to'liq va o'z vaqtida ijro etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Baholovchi stil. Bu turga mansub insonlar to'g'riligiga o'zlari ishonch hosil qilgan tartibotlarga amal qilishadi. Faoliyatlarini mavjud, lekin ularning fikricha "tartibga solib qo'yish" kerak bo'lgan tizimga mos ravishda amalga oshirishga yo'naltirishadi. Bir so'z bilan aytganda esa faoliyat va muammoni tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga moyildirlar. Bu kabilar o'zlariga psixoterapevt, maslahatchi, siyosatchi, sudya kabi kasblarni tanlashadi.

Epistemologik stil bu voqea-hodisa, jarayonni o'rganishga nisbatan yondashuvda o'zining individual "dunyo manzarasini" yaratishda namoyon bo'luvchi individual o'ziga xoslikdir. Amerikalik olim Dj. Roys empirik, ratsional va metaforik kabi epistemologik stillarni qayd etadi. Bunda empirik stil – bilish uslubi bo'lib, bunda inson amaliy tajriba va bevosita o'zlashtirayotgan bilimlarga asosan borliq bilan munosabatga kirishishni shakllantiradi. Mazkur stilga mansub insonlar o'z fikrlarini to'g'riligini dalillarga, uzoq kuzatuvlarga, ishonchli va qayta o'tkazilgan kuzatishlarga asoslanib isbotlashga moyil bo'lishadi. Empirik stil harbiy faoliyatda olingan nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llashda, nazariy bilimlarini amaliyotda tekshirib ko'rishda, ayniqsa qo'l kelishi mumkin.

Ratsional stil shaxsning bilish uslubi bo'lib, u borliqqa nisbatan qarashlarini aniq nazariyalar, kategoriyalar, sxemalarga asoslanib belgilaydi. Ushbu stil vakillari mantiqiy to'g'ri xulosalar asosida fikrlaydilar. Ular uchun bilishning asosiy mezonini uning mantiqiy asoslanganligidir. Mazkur stil vakillaridan harbiy tadqiqot va ta'lim muassasalarini jamlashi maqsadga muvofiq bo'lib, bu harbiy fanni rivojlantirish va yetuk bilimlarga ega harbiy kadrlarni tayyorlash omili bo'lishi mumkin.

Majoziy stil intuitsiyaga asoslangan, taassurotlarini maksimal xilma-xilligini ta'minlashga harakat qiladigan bilish uslubi. Ushbu stil vakillari borliqni shaxsiy kechinmalari, baholari va e'tiqodlariga asoslanib baholaydilar.

Tadqiqotimiz uchun intellektni rivojlanishiga xizmat qiluvchi omillar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda intellektual salohiyat harbiy faoliyat samaradorligi omili sifatida e'tirof etilmoqda.

Qolaversa, urushlar kun sayin sun'iy (*sintetik*) tus olib, ularning an'anaviy usul va vositalari zamonaviy noan'anaviy usul va vositalar bilan almashib kelmoqda. Bu, o'z navbatida, qurolli to'qnashuvlarda g'alabaga yetaklovchi yangi omillar ustida ish olib borish talabini qo'yadi. Har qanday faoliyatda muvaffaqiyatga erishish esa, albatta, intellektga va uning ishtirokiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Demak, intellektual qobiliyatlar, ya'ni konvergent va divergent qobiliyatlar, bilimlarni egallay olish va bilish stillari, sinchkovlik, teran aql, uning egiluvchanligi va harakatchanligini, mantiqiy, tanqidiy va aniq fikrlash kabi intellektual sifatlar harbiy xizmatda muhim ahamiyat kasb etib, harbiy xizmat muvaffaqiyatining omili bo'lib xizmat qiladi.

Polkovnik Jaloliddin RASULOV

Anakonda ilonida bir xususiyat mavjud. U bo'lajak qurbonini shafqatsiz, sovuq nigohi bilan avval gipnoz qilib, o'z yo'rig'iga solib, shol holatga kelgach, keyin domiga tortadi. Biroq asablari mustahkam, qo'rqmas mavjudotlarga anakondaning bu nayrangi ta'sir qilmas ekan. Qarang, hatto yovvoyi tabiatda ham epchillig-u vahshiyona kuch emas, qat'iylik, dushman irodasini yengish kabi xislatlarning mavjudligi hayratga sazovor holdir.

Men ilon haqida bejiz so'z ochmadim. Chunki bu ulkan ajdarhoning fe'l-atvori Turkiston xalqlariga shafqatsizlarcha tajovuz qilgan chor Rossiyasi-yu sho'rolar istibdod zulmining aynan o'zi. Turon eli bag'riga sirg'alib kirgan ajdarho – mustabid tuzum zahrini yuz yildan ziyodroq tatib ko'rdi. Bu ajdarho o'zbekning ne-ne daholari, yiqilsa tiragulik tayanchlari, botir-u bahodirlarini o'z domiga tortmagan deysiz. Bir asrlik tarix millatning qadri, qatag'onga uchragan shahid farzandlari, boyliklari talangan zamini, sho'ro tuzumiga qurbonlik qilingan erki bilan yakun topdi. So'zimiz avvalida hatto yovvoyi tabiatda ham dushman irodasini yengish kuchi borligi

deya, xalqimizga nido qiladi. Saksoninchi yillarda yaratilgan isyonkor bu she'r mustabid tuzum yo'rig'ida hamon o'zligini anglay olmayotgan xalqimizning karaxt holatiga tutilgan ko'zgu edi.

Har birimiz xalqning bir vakili, yurt kelajagi uchun javobgar insonlarmiz. Asrlar davomida bobolarimiz qon yutib kutgan Hurlik quyoshi mana o'ttiz uch yildirki, bizga nasib etib, elimizga nur sochib turibdi. Biroq o'tgan armonli kunlar ertaga takrorlanmasligi, xalqimiz erk-u irodasi o'zgalar manfaatiga qurbonlik qilinmasligi uchun keling, tarixga nazar tashlab, undan tegishli saboq olaylik!

Barchamizga ma'lumki, Vatan mustaqilligiga, xalq erkiga chetdan tahdid bo'lganida el orasidagi o'zaro nizolar, shaxsiy adovatlar chetga surilib maqsad bitta bo'ladi – dushmani yurtga yo'latmaslik, uni tor-mor etish. Ammo yovga qarshi barcha barobar harakat qilmas ekan, yurti istibdod zulmidan asrashga qodir qo'llar dushman makriga o'ynagan sotqin qo'llardan ustun bo'lolmas ekan, bu xalq mustabidlikka giriftor manqurt olomondir. Afsuski, bu achchiq haqiqat o'tgan tariximizga o'z

muhurini bosib ulgurdi. Uning sahifalariga erk yo'lida umrini qurbon qilgan bobolarimiz jasorati bilan birga mustabid tuzum yo'rig'iga yurgan ajdodlarimiz xatosi ham bitilgan.

Men el ozodligi yo'lida isyonkor bobomiz Dukchi Eshondan (Muhammad Sobir o'g'li) tortib, yurtning bo'lajak daho shoiri hisoblangan Usmon Nosirni yovga tortiq etgan xoin qo'llar haqida gapirishdan avval bir mulohazaga keldim. Ya'ni dushman yurt qonini so'rmoq ilinjida mamlakat qo'rg'oni bo'lmish qishloqlarga chirmoviq solganda u yerdagi xalq yovga qanday munosabatda bo'ldi? Bu haqiqatni qishlog'imiz

tarixi bitilgan kitobdan izlashga harakat qildim.

Bizning Rajabgardi qishlog'i vodiyning chekka hududi bo'lsa-da, o'z vaqtida badavlat, savodli va hunarmand insonlari bilan atrofga tanilgan. 1982-yillarda sho'rolar davlati Turkistonning barcha hududi qatori bu yerga ham "yaxshi niyat" bilan ilondek silliqqina kirib kelganida uning tuzog'iga ilinganlar karaxt holatda-yu oriyati uyg'oq er yigitlar uni yanchish maqsadida istilochilar "bosmachi" deya ta'rif bergan milliy ozodlik harakatida bo'lgan. O'zining mustamlakachilikka asoslangan yovuz niyatini go'yoki tenglik deb ataluvchi ezgu va'dalar yo'rgagiga o'ragan istilochilar xalqning bag'ri ochiq va ishonuvchanligidan unumli foydalana oldi.

1926-yilda rayon tuzilgach, yuzlab qishloqlar qatori bizning qishloqda ham yer islohotidan so'ng dastlab artel, keyinchalik kolxoz tarkib topdi. Biroq mustabid tuzum hidi kelib turgan sovet davlatining nayranglari bu yerdagi savodxon, ongi uyg'oq insonlarni befarq qoldirmasligi bosqinchilarga ayon edi. Shu sababli makkor yov xalq orasidagi ichki nizo-yu, shaxsiy adovatlarni o'z manfaatiga bura oldi. Ya'ni dastlab kolxozga savodxon, ishbilarmon, elni ortidan ergashtirishga qodir insonlar rais, bosh hisobchi, ish yurituvchi, pattachi, o'n boshi kabi qator vazifalarga xalq tomonidan saylandi. Bu esa el orasidagi oriyati uyg'oq insonlarni yuzaga chiqishiga imkon berdi.

Istilochilarning endigi vazifasi esa shubhasiz, ularni yo'q qilish edi. Buning uchun millat ichidagi xoin qo'llar ishga solindi. Ya'ni yuqoridagi vazifalarda ishlashni istagan, biroq saylana olmagan yov tuzog'idagi alamzada dehqonlardan yangi hukumat "kambag'allar guruhi" tuzdi va ularga katta imkoniyat berildi. Voqealar davomini qishlog'imiz tarixi bitilgan kitobdan aynan keltirishga qaror qildim: "Kambag'allar guruhi"ning o'ndan ziyod a'zosi qishloqdagi kolxoz rahbarlari hamda obro'li, ishning ko'zini biladigan dehqon va hunarilarni quloq (mushtumzo'r) qila boshladi. Quloq qilish uchun "kambag'allar guruhi" qaror chiqarib bersa, rayondagi uchlik komissiya: rayon ijro komiteti, kontrol komiteti va ichki ishlar bo'limidan bittadan a'zo bu qarorni tasdiqlab qo'l qo'ysa bo'lgani, ro'yxatga tushgan insonlar bola-chaqasi bilan so'roqsiz, sudsiz ko'chirma qilinar, mol-mulki musodara qilinib, davlat foydasiga kimoshdi savdosida sotilar edi".

Kolxozlar tashkil topgandan boshlangan bu hunrezlikda dastlab qishloqdagi kolxoz rahbarlaridan o'n uch kishi oila a'zolari bilan jami ellik jon Ukrainaning Xerson viloyatiga surgun etilib, oila boshliqlari o'sha joyda qatl qilinadi. Kolxozga rahbarlik lavozimlarini esa "kambag'allar guruhi" a'zolari egallaydi. Ammo u qadar savodxon bo'lmagan uquvsiz bu kimsalar kolxoz ishini eplay olmay, oralarida o'zaro nizo chiqadi. Yana bu borada mustamlakachilarning puxta o'ylangan rejasi ish beradi. "Kambag'allar guruhi" a'zolari ham kolxoz ishini ortga tortganlikda ayblanib, borsa qaytmas joylarga surgun etiladi. (Chunki ularda ham isyonkor ruh bor edi-da). Qishloqdagi ongi uyg'oq insonlarni bundan "chekankalash" 1941-yilga qadar davom etadi. O'z yetakchilarini yo'qotgan xalq esa o'z-o'zidan mustabid tuzumning manqurt xizmatkorlariga aylanadi. Bu holat butun mamlakat bo'ylab barcha sohalarida birdek amalga oshirilgan, millat qaddini ko'taruvchi jo'mard insonlar birdek yo'q qilingan. Eng alamlisi, mana shu hunrezliklarga do'ppi o'rnida bosh keltirgan xalq ichidagi sotqin qo'llar bosh-qosh bo'lgan. Bu ulkan xato esa ulug' millatimizni ajdarho domidagi asrlik zulmga mahkum etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz tarixdan o'z o'rnida faxr, o'z o'rnida saboq olaylik. Toki kelajakda, kelajak avlod ichida yov makriga sotilgan sotqin qo'llar aslo unmasin.

Shukronalar bo'lsinki, u kunlar bugun ortda qoldi. Istiqloq quyoshi sabab xalq yelkasiga oftob tegdi, qaddi ko'tarildi. Hurlik – bu yurtning sha'ni, millatning or-nomusi, avlodlar kelajagi. Bugun biz bu baxtning etaklarini sajdalar ila ko'zga suramiz.

Xalqim, o'tgan kunlar uchun seni bir oz koyigan bo'lsam uzr. Chunki men ham sening bir vujudingman, baxtingni tilovchingman. Tong saharlar sajdadagi ezgu tilagim: Buyuk bo'l, Ulug' bo'l, eng asosiysi, Xalq bo'l, Elim!

Mulki Turon yurti eding – behisht eding,
Beshta og'a birlashganda bir musht eding,
Buyuklikdan ko'ksi baland – sarxush eding,
O'zaniga intiq ummon – shaxt bo'l elim – Xalq bo'l, elim!

Parokanda eldan omad o'girar yuz –
Yelkang uzra qabariqdir ming qamchi iz,
Til kuydirar bir tasalli, bir tayanch so'z,
Erk yo'lida bir so'z-u bir ahd bo'l elim – Xalq bo'l, elim!

Bobolaring ulug' o'tgan – cho'ng muzaffar,
Haq yo'lida mardona bo'l, bo'l samandar,
Kelajaging – avloding bor dunyonazar,
Yov qo'llarin uzatolmas taxt bo'l elim – Xalq bo'l, elim!

Jannatmakon zamin erur bu ostona,
Sajdasiga intiq bo'lgan ne peshona,
Toleingni kiftingda tut, chin mardona,
Ahli dunyo ko'z tutgulik Xalq bo'l elim – Xalq bo'l, elim!

Zulfiya YUNUSOVA



Moziyga
qaytib...

haqida gapirdik. Oliy maqomga ega insoniyatda esa bu kuch ming chandon yuqori bo'lishi, shubhasiz.

Xo'sh, mustamlakachilik – ulkan ajdarho yurtimizni ta'qib etganida xalqimiz uning nayranglari oldida qay holatda turdi. Balki oramizda o'tgan kunlarni, tarixni titkilashdan nima foyda, deguvchilar topilar. Ammo moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrli, deydilar, tarix biz uchun oyna. Biz bu ko'zgu oraqali o'zligimizni chuqurroq anglab, ajdodlarimiz xatosini takrorlamaslikka, o'z vaqtida, keragidan ortiq qon to'kilgan hurligimizni jon qadar asrashga shay turmog'imiz shart. Dunyoga yuz tutayotgan ona diyorimizni yanada rivojlantirish yo'lida bedor bo'lmog'imiz lozim. Zero faylasuflar ta'kidlaganidek, "Yashashga va erkinlikka har kuni ular uchun kurashuvchi odamgina loyiqdir".

Hassos shoir Abdulla Oripov kechagi kunimizga murojaat qilib:

Mashrab osilganda qayoqda eding?
Cho'lpon otulganda qayoqda eding?
Surishtirganmiding, Qodiriyni yo,
Qalqon bo'lganmiding, kelganda balo?
Hukmlar o'qilur sening nomingdan,
Tarixlar to'qilur sening nomingdan.
Nimasan? Qandayin sehrli kuchsana?
Nechun tomoshaga bunchalar o'chsan?
Qarshingda hasratli o'yga tolaman,
Qachon xalq bo'lasan, ey, sen – olomon?!

Yo'lim shahar istirohat
bog'idan o'tardi.
Shunday kunlarning
birida yo'lakda keta
turib, bir qizaloqning
chinqirig'i
qulog'imga chalindi
va beixtiyor u
tomonga qaradim.
Ko'zimga yosh
keldi. Yuragimda
esa ajib his jo'sh
ura boshladi.



Bu mening bayrog'im!

Keyin bilsam, voqea bunday bo'lgan ekan. Besh-olti yoshli qizaloq onasi bilan bog'da sayr qilib yurib, do'konga kiradi. Onasi qator o'yinchoqlar-u taqinchoqlardan qay birini tanlar ekan, deb qizalog'iga boqadi. Qarasa, qizchanning ko'zlari chaq nab, qo'li bilan ishora qilyapti. Sotuvchi kulganicha, qizcha ko'rsatgan narsani olib uzatadi. Ona hayratdan qotib qoladi. Qizi shuncha o'yinchoqlarga qiyo boqmay, O'zbekistonning mittigina bayrog'ini tanladi! Ona hayajon bilan qizini bag'riga bosib, bayroqdan ikkita olib berdi.

Qizchanning quvonchi bir olam. U bog' ichra yugurib, baland qilib ko'tarib olgan bayroqchasidan ko'z uzmasdi. O'ynay-o'ynay charchadimi, o'rindiqqa – onasining oldiga o'tirdi

va bayroq haqida she'r ayta boshladi. Ona qizining xatti-harakatlaridan sarxush bo'lib, uni kuzatardi. Qizaloq bayroqni mehr bilan silab-siypalar, goh-gohida uni o'pib qo'yardi. Yugurganida bayroqning shabbodada mayin hilpirashidan zavqqa to'lib, qiyqirib kulardi. Uni dam o'rindiq chetiga, dam atrofdagi butalar shoxlariga ilib, o'zicha quvonardi. Ona shirintoyidan nigohini olib, qo'lidagi kitob mutolaasini davom ettirardi. Qancha vaqt o'tganini sezmaydi. Bir payt qizining chinqirig'ini eshitadi va yuragi o'ynab u tomon yuguradi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, bayroq favvoraga tushib ketibdi. Qizcha uni buta shoxiga ilayotganida sirpanib ketib yiqilgan ekan, bayroqcha esa yonginasidagi favvoraga tushadi.

Ona qizini ko'tarib bag'riga bosadi, qizaloq esa onasining, qo'lidan sirg'alib tushadi-yu, favvoraga g'arq bo'layotgan bayroqcha tomon otiladi, suvga sakrab tushib, bayroqchani oladi-da, ko'ksiga bosadi. Ona qizini suvdan chiqarib, koyishini ham, kulishini ham bilmay karaxt holatda turibdi...

Vatan ramziga mehri baland bu jajji qizaloqqa havas bilan tikildim. Ko'ylakchasi, sochlari jiqqa ho'l qizaloq menga qarab jilmaydi va "Bu mening bayrog'im, bu O'zbekiston bayrog'i!" dedi. O'sha lahzalarda mittigina qizaloqning mittigina qalbidagi Vatanga, uning bayrog'iga bo'lgan mehrning o'lchamini topolmay, lol qoldim.

O'ktamxon AKBAROVA

Ko'rik-tanlov

Har bir millatning qiyofasi milliy ong va tafakkurning ruhiy quvvatida namoyon bo'ladi. Xalqimizning uzoq o'tmishga borib taqaladigan milliy musiqasi va xalq og'zaki ijodi durdonalari, hududlarga xos urf-odatlar-yu marosimlarga boy nomoddiy madaniy merosi mavjud bo'lib, ushbu milliy va umuminsoniy qadriyatlarini aholi, ayniqsa yoshlar orasida targ'ib qilish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

San'atda ham uddaburon shifokorlar



Nomoddiy madaniy merosimizni asrash, uni muhofaza qilish, qolaversa, targ'ib qilishda har birimiz birdek mas'ulmiz. Buni mohiyatan chuqur anglagan harbiy shifokorlar ham bu borada soha mutaxassislaridan qolishmagan holda amaliy ishlarni bajarib kelmoqda.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugga qarashli Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda Qarshi harbiy gospitali bilan hamkorlikda tashkil etilgan "San'atda ham uddaburon shifokorlar!" ko'rik-tanlovi ana shunday targ'ibotni o'z ichiga olgan, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Tanlov nizomiga ko'ra, beshta shartdan iborat bo'lgan bellashuv hay'at a'zolari tomonidan 5 ballik tizimda baholab borildi.

"Tanishtiruv" shartida sardor jamoasini hamda ishtirokchilarni qiziqarli tarzda ta'riflab, tanishtirib o'tishi, shart so'ngida jamoa shiori aytilishi so'raldi.

"She'riyat gulshani" shartida esa jamoadan bir ishtirokchining Vatanni madh etuvchi she'r ijro etishi talab qilindi.

Keyingisi "Milliy qadriyatlar" sharti bo'lib, bunda jamoalar o'lan, yor-yor, aytishuv, folklor qo'shiqlar, to'y marosimlari, lapar, mavsum-marosimlari kabi janrlarda badiiy sahnalashtirilgan, milliy va hududiy o'ziga xosliklarni aks ettirgan holda bellashdi. Ishtirokchilarning turli hududlardan bo'lganligi ushbu shartga yanada joziba bag'ishladi.

"Tezkor savol-javob" shartida jamoalarning har biriga berilgan 10 ta savolga beriladigan

javoblariga qarab, ularning intellektual salohiyati ham hakamlar hay'ati tomonidan baholab borildi.

Ko'rik-tanlovning so'nggi sharti bo'lgan "Qo'shiq va raqs ijrochiligi" barchaga birdek manzur bo'ldi. Chunki bu shartda jamoaning bir nafar ishtirokchisi tomonidan Farg'ona, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo hududlariga xos qo'shiqqa jamoaviy raqs ijro etilishi tashrif buyurgan tomoshabinlarning kayfiyatini ko'tardi.

Tanlov yakuniga ko'ra, 1-o'rinni "Fidoyilar", 2-o'rinni "Sho'x qizlar" hamda 3-o'rinni "Temuriylar" jamoalari qo'lga kiritib, ko'rik-tanlov tashkilotchilari tomonidan maxsus diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug matbuot xizmati

Harbiy qism va muassasalarda madaniyat markazi boshliqlarining ish samaradorligini yanada oshirish, kutubxonalar ish faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, targ'ibotning innovatsion texnologiyalarini joriy etish hamda ular orasidan eng namunalisini aniqlashga yo'naltirilgan "Eng ilg'or Madaniyat markazi boshlig'i", "Eng yaxshi kutubxona", "Eng yaxshi kutubxonachi" ko'rik-tanlovlari o'tkazildi.



Unda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Surxondaryo viloyatida joylashgan barcha harbiy qism va muassasalarda faoliyat yurituvchi madaniyat markazi boshliqlari, kutubxonachilar faol ishtirok etdi.

Tanlovni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo viloyati bo'limi, Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, Adib Sobir Termiziy nomidagi Surxondaryo viloyati axborot-kutubxona markazi va Respublika "Ma'rifat targ'ibotchilari" jamiyati viloyat bo'limi mutaxassislar odilona baholab bordi.

"Eng ilg'or Madaniyat markazi boshlig'i" tanlovida mutaxassislar belgilangan shartlarni bajarib, o'z ish faoliyatlari bilan tanishtirdi.

"Eng yaxshi kutubxona" tanlovida harbiy qism va muassasalarda mavjud kutubxonaning zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganligi, yangi adabiyotlar bilan boyitilganligi inobatga olinib, ushbu mezonlardan kelib chiqqan holda baholab borildi.

"Eng yaxshi kutubxonachi" tanlovida esa kutubxonachilarning bilimi va kasbiy mahorati, kitobxonalarga ko'rsatayotgan xizmat turlari, elektron katalog yaratish va foydalanish, ma'naviy-marifiy kechalar, tanlovlar o'tkazish, kitobxonalar bilan ish faoliyatini tashkil etish, internet yordamida berilgan mavzu bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish, zamonaviy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ish jarayonida samarali foydalana olish qobiliyati, kutubxonada mavjud bo'lgan adabiyotlardan mavzuga oid bibliografik ko'rsatkich tuzish, kutubxona fondi va adabiyotlari bilan ishlash mahorati sinab ko'rildi.

Tanlov yakunida barcha shartlardan muvaffaqiyatli o'tganlar saralandi. G'oliblik Termiz garnizonidagi mutaxassislariga nasib qildi.

Tanlov g'oliblari qo'mondonlik tomonidan sertifikatlar bilan taqdirlandi.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugning Kakaydi garnizonidagi harbiy qismda "Milliy qadriyatlar va urf-odatlarini bilish hamda hurmat qilish – sharaflı burch" shiori ostida ko'rik-tanlov o'tkazildi.



Milliylikka yo'g'rilgan bahs

Qiziqarli bahslarga boy bo'lgan bellashuvda mamlakatimizning turli viloyatlaridan kelib, Kakaydi garnizonida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirok etdi.

Vatan posbonlari va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlash, moddiy-ma'naviy tomonlama rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan ko'rik-tanlovda har bir oila o'zlariga ajratilgan joylarda tug'ilib o'sgan viloyatlarining milliy qadriyatlarini ko'rsatish uchun hududlarni bezab, sahna chiqishlarini namoyish etdi.

Harbiy xizmatchilar oila a'zolari bilan dasturxon bezab, o'z viloyatidagi milliy taomlarni tayyorlash sirlarini ko'rsatdi. Ularning mahoratini malakali hakamlar hay'ati munosib baholab bordi.

Tanlovda birinchi o'rinni III darajali serjant Jamshid Turdiyev qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rinni esa kichik serjant Jasur Tojahmedov, uchinchi o'rinni kichik serjant Alisher Qutlimurodov egalladi.

G'oliblar diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Ko'rik-tanlov el suygan san'atkorlarning qiziqarli konsert dasturi bilan yakunlandi.

Kichik serjant Qahramon SOLIYEV Termiz garnizoni

Adabiy kecha

Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahrida joylashgan harbiy qism harbiy xizmatchilari tashabbusi bilan Abdulla Qodiriy memorial muzeyida "Jadid ma'rifatparvarlarining g'oyaviy davomchilari" mavzusida adabiy-badiiy kecha o'tkazildi.

Jadidlar harbiy xizmatchilar nigohida



Unda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti mas'ullari, "Abdulla Qodiriy" uy muzeyi hamda "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyi xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar o'zbek ma'rifatparvarlarining hayoti, ularning millat va

el-yurt rivoji uchun amalga oshirgan ibratli faoliyati haqida atroflicha fikr yuritdi.

Harbiy xizmatchilar tomonidan sahnaga olib chiqilgan badiiy ko'rinishlarda esa jadidlarning mamlakatning kelajakdagi manfaati uchun yoshlarni Yevropaning eng nufuzli oliy ta'lim

muassasalariga o'qishga yuborgani, bu sharaflı yo'lda ular uchragan qiyinchiliklar hamda talabalarning ayanchli qismati yoritib berildi.

Shahnoza SULTONOVA

Germaniyalik mutaxassislarning ta'kidlashicha, eng yaxshi tarbiya bu zukko va komil ota-ona tomonidan o'z farzandiga berilgan tarbiyadir. Chunki ota-ona oldida farzandiga ta'sir etish imkoniyatlari boshqalardan ko'ra eng ko'p hisoblanib, bu vazifani ado etishda ham ular o'zlaridagi bor mehrni ishga soladi.

Qolaversa, barkamol ota-onaning bosh maqsadi farzandlarining ilmi bo'lishi uchun muhit hamda sharoit yaratib berishga qaratiladi va ular har qanday sharoitda ham vaqt ajratib, bolalarining ta'lim-tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanadi. Shu nuqtayi nazardan **“Barkamol ota-ona – sifatli ta'lim, mustahkam oila” mutanosibligiga erishish** har qanday sog'lom jamiyatning maqsadidir.

Ammo bugun oliy ma'lumotli, komil ota-onalar soni har qancha ko'payib borayotgan bo'lishiga qaramay, dunyo pedagoglarining xavotiri ham shunchalik kuchayib bormoqda. Chunki keyingi 10 yil ichida ota-onalarning o'z farzandlari tarbiyasi uchun ajratayotgan vaqtlari tobora qisqarib bormoqda. Bunga nikohsiz tug'ilish holatlarining ortib borishi va ajrashishlarning ko'payayotgani qanchalik tashvishli holat sifatida e'tirof etilayotgan bo'lsa, ota-onalarning ishga haddan ortiq berilib ketishi natijasida farzandlari bilan birga bo'lishga vaqt topa olmayotgani ham eng jiddiy sabab qilib ko'rsatilmoqda.

Muammo nimada?

Ishdan horib kelgan ota yoki onani hamda horish nimaligini bilmay, ota-onasining ishdan kelishini intizorlik bilan kutib o'tirgan kichkintoylarni

OTA-ONA VA FARZAND

bir ko'z oldingizga keltiring-a. Bunday paytda oshxona yumushlariga kirishib ketgan ona va televizor kanalidan biror dam olish dasturini qidirayotgan ota bolalarining ularga xalaqit bermasligini qanchalik istasa, jajjilar esa eng yaqin do'stlari – ota-onalari bilan birgalikda dars tayyorlashni, biror qiziqarli mavzuda muloqot qilishni va o'yinlar o'ynashni shunchalik xohlaydi. Bola ko'nglidagi ana shu ma'naviy istaklar amalga oshmay qolgan kundan e'tiboran esa eng yaqin hamkori ota-ona emas, kompyuter bo'lib qolayotgan va unga mukkasidan ketib, ipsiz bog'lanib qolayotgan va his-tuyg'ulari o'tmaslashayotgan bolakaylar ko'payishining yana bir sababi yuzaga keladi.

Shu o'rinda esa ingliz olimi Timoti Uinterning mavzumiz davomi bo'la oladigan mana bu fikrlari bilan ham tanishish: “...Ota-onalarning ishi shunchalik ko'payib ketayotganidan ovqatlanish vaqti ham o'z qat'iyatini yo'qotib, konserva ochib yeyish ishiga aylanib bormoqda. Aslida u butun oila a'zolarini mehr rishtalari bilan bir-biriga bog'laydigan va orziqib kutiladigan fursat bo'lishi kerak. Afsuski, buning iloji bo'lmayapti. Chunki ota-onalar ertalab farzandlari uyg'onmasidan turib, ishga otlanadi va ularni kutib-kutib uxlab qolganlarida kirib keladi. Natijada oila a'zolarining uyga va bir-biriga tegishlilik hissi yo'qolib bormoqda. Ayni chog'da bolalar uyni tark etadi. Chunki ular o'zlarini uyda hech narsa ushlab turmayotgandek his etadi”.

Ahvol shu tarzda davom etar ekan, o'rinni savol tug'iladi:

Qanday yo'l tutish kerak?

Ota-onalarning ish bilan band bo'lib, farzand tarbiyasiga vaqt ajrata olmayotgani bizning jamiyatimizda ham mavjudligidan ko'z yuma olmaymiz. Talaygina qorako'zlar otalarining dam olish kuni qachon kelishini hisoblab yurishi ham bu fikrimizning eng oddiy dalili bo'la oladi. Yaponiyada esa jurnalistlar bunday dalillarning turli-tumanini keltirishga tayyor. Chunki ularda mazkur muammo ko'lami bizga nisbatan bir necha marotaba keng bo'lib, ancha tashvishli ahvolga kelib qolgan. Hattoki ma'lumotlar ta'tilsiz ishlash natijasida kasb kasalligiga uchrab, umriga zomin bo'layotgan yapon fuqarolari soni ortib borayotganini ham ko'rsatmoqda. Ammo ular mazkur muammoni bartaraf etish uchun “Ish tarzimizni shunday tartibga solaylikki, toki farzandlarimiz tarbiyasi bilan shug'ullanishga ham imkonimiz bo'lsin. Aks holda, 20–30 yil o'tib, ota-ona tarbiyasida kemtikligi bo'lgan bu farzandlarimiz topgan-tutganimizni yo'q qilib, bugungi mehnatlarimizni ham chippakka chiqarishi mumkin”, deya qaramoqda.

Tarbiyaning qanchalik muhimligini yana bir bor anglatuvchi bu qarash albatta, har qanday ishbilarmon ota-onani ham tegishli xulosa chiqarishga undaydi. Suhbatdoshimiz pedagogika fanlari doktori, professor Qumri Abdullayevaning e'tiroficha, biz ham o'zimizga xos sharoitdan kelib chiqib, shu va shunga o'xshash bir qator xulosalarni amaliy ishlarimiz qatoriga qo'shishimiz lozim.

Mahalliy sharoitimizga e'tibor beradigan bo'lsak, maktabgacha

ta'lim tashkilotlariga qatnaydigan farzandlarimiz ma'lum ma'noda ta'limning ilk va sodda ko'rinishlaridan bahramand bo'lmoqda. Ammo ko'p ming sonli MTTga qatnamayotgan 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarimiz-chi? Ularga uy sharoitida berilayotgan oilaviy ta'lim-tarbiya qoniqarli ahvoldami? Kuzatishlarimga tayanib aytadigan bo'lsam, bu masala qoniqarli ahvolda emas. Jumladan, aksar hollarda vaqti yetarli bo'lgan uy bekaları ham bola tarbiyasiga jiddiy munosabatda emas. Negadir ular bolalarining usti butligi, qorni och yoki to'qligi haqida ko'proq o'ylaydi-yu, ammo ta'lim-tarbiyasi borasida qayg'urayotgani sezilmaydi.

– Yaqinda uzoq qishloqlardan birida yashayotgan xonadonda bo'ldim, – deydi yana bir pedagog suhbatdoshimiz. – Avvaliga yoshgina bolakay salom-aliksiz u yoqdan bu yoqqa o'taverdi. So'ngra bizning oldimizga kelib, onasiga talpindi. E'tiborimni tortgan murg'akkina go'dakka qarab, yoshini so'radim. U uyaldimi, gapirmagach, onasi javob berdi:

– 6 yoshda.

– Voy, maktabga borar ekansan-da? Sanashni o'rganyapsanmi?

Savolimga bolakay indamadi, ammo uning o'miga yosh ona xotirjam javob berdi:

– Mening ortimdan takrorla, deb sanashni o'rgatmoqchi bo'lsam, hech aytganimni qilmaydi. Bu turishda maktabda ikkichi bo'lib qoladi-da.

Pedagog bo'lganim, doimo shu haqda o'ylaganim uchunmi yoki bo'lmasa, dilimdagi og'rig'im qo'zg'agandek bo'ldimi, ichimda bir narsa “chirt” etib uzilgandek bo'ldi. To'g'rirog'i, farzandida boshlanayotgan ilmsizlikdan qayg'urmayotgan va bunga xotirjam qarayotgan onadan xafa bo'ldim. Bolaga munosabat shu tarzda davom etsa, uning kelajagi nima bo'ladi? Axloqi, tarbiyasi-chi? Qayerdadir ishlab, vaqt topolmaganida-ku, boshqa gap derdik. Ammo bolasining ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishi uchun vaqti yetarli-ku. Bunday onalarga guldek bolalarining axloqi va tarbiyasidan-da muhim yana qanday yumush bo'lishi mumkin? Shundan so'ng bu haqda uzoq o'ylanib yurdim. Nazarimda, boshqalar tarbiyaga vaqt topolmay chora qidirayotgan bo'lsa, biz ma'lum bir toifadagi vaqti bor onalarimizning va albatta, otalarimizning fursat bo'lganida yuzaga keladigan vaqtlarini farzandlari bilan mazmunli va foydali o'tkazishlari haqida o'ylashimiz kerak.

Xulosa

Ayrim ota-onalar har qanday ish sharoitida ham farzandlariga vaqt ajratishning uddasidan chiqadi. Ishxonadan turib, uyga qilingan bir zumlik qo'ng'iroq ham ko'proq hol-ahvol so'rashga o'xshab ketsa-da, ammo bu ota-onaning farzand tarbiyasi bilan bog'liq munosabatida muhim o'rinni tutadi. Eng muhimi esa bu holatlar ota-onada ham, farzandda ham oilaga tegishlilik hissinı kuchaytiradi va mehr rishtalari mustahkamlanishiga ko'maklashadi.

Biz suhbatda bo'lgan ota-onalarning aksariyati ular tashkil etgan ish tartibi farzandlari tarbiyasi bilan shug'ullanish uchun xalaqit bermasligini aytgan bo'lsa, bunday emasligidan noyiganlar ham kamchilikni tashkil etmadi. Shunday ekan, ota-onalarning farzandlari ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanish uchun ajratayotgan vaqtlari haqida o'ylab ko'rishga zarurat bor. Qolaversa, bu hozircha ish tartibi bilangina bog'liq bo'lib ko'rinsa-da, aslida ota-ona, farzand, oila va jamiyat kelajagi bilan bog'liqdir.

Zebo NAMOZOVA,
jurnalist

Dolzarb 30 kun

MAQSAD – XAVFSIZLIK

Joriy yilning yoz mavsumida havo haroratining keskin oshib ketish davrida yong'in xavfsizligini ta'minlash hamda betalafot o'tkazish maqsadida harbiy qism va muassasalarda, shuningdek biriktirilgan tuman va mahallalarda profilaktik tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.



Shu munosabat bilan Mudofaa vazirligining Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligiga biriktirilgan va otaliqqa olingan Yunusobod tumanidagi yoshlar o'rtasida “Dolzarb 30 kun” tadbirlari davomida faol ishtirok etaylik!” mavzusida yong'in xavfsizligi xizmati mutaxassislari tomonidan profilaktik suhbat o'tkazildi.

Tuman hokimiyati vakillari, mahallalarga biriktirilgan harbiy xizmatchilar va yoshlar yetakchilari ishtirok etgan tadbirida so'zga chiqqanlar “Dolzarb 30 kun” tadbiri davrida



otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida profilaktik tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish, quyosh urushining oldini olish, belgilanmagan va xavfsizlik choralari ta'minlanmagan suv havzalarida cho'milmaslik, maishiy elektr moslamalaridan to'g'ri foydalanish, hududlarni quruq o't va xashaklardan muntazam ravishda tozalash ishlarini olib borish, mavjud birlamchi yong'inni o'chirish vositalarining taktik-texnik xususiyatlari va qo'llash tartibi haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Podpolkovnik U. XAITOV.
G'iyosiddin AVAZXONOV,
“Nurmakon” MFY yoshlar yetakchisi

MOHIR HAYDOVCHILAR tayyorlash yo'lida

“Vatanparvar” tashkiloti o'quv muassasalarida haydovchilik kasbiga o'qitilayotgan fuqarolarning nazariy va amaliy bilim, ko'nikmalarini oshirish maqsadida respublika bo'ylab tashkilotning moddiy-texnik negizi takomillashtirilmoqda, o'quv binolari va avtodromlari innovatsion texnologiyalar bilan qayta jihozlanib, foydalanishga topshirilmoqda.

“Vatanparvar” tashkiloti Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Shahrisabz avtomobil maktabining zamonaviy talablarga mos ravishda bunyod etilgan avtodromining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tantanalı tadbırda “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov, IIV JXD Yo'l harakati xavfsizligi xizmati boshlig'i Sherzod

Ibragimov, Shahrisabz shahri hokimligi mutasaddilari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Husan Botirov ochilish marosimida so'zga chiqib, mazkur obyekt davlatimiz mustaqilligining 33 yillik bayrami munosabati bilan Shahrisabzliklar uchun “Vatanparvar” tashkilotining sovg'asi ekanini, endilikda ushbu o'quv avtodromida haydovchilikning barcha toifalari bo'yicha o'qitilayotgan fuqarolar doimiy ravishda amaliy mashg'ulotlarni o'tashlari mumkinligini bildirdi.

Sherzod Ibragimov o'z nutqida “Vatanparvar” tashkilotining avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida tahsil oladigan har bir fuqaro professional haydovchi va xavfsiz yo'l harakati ishtirokchisi bo'lib yetishishiga umid bildirdi.

Shundan so'ng zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan qayta jihozlangan Shahrisabz avtomobil maktabi binosida ekskursiya uyushtirildi.

Tadbir davomida tashkilotning Qashqadaryo viloyati kengashi raisi Otamurod Elomonovga Yo'l harakati xavfsizligi xizmati boshlig'i tomonidan Shahrisabz avtomobil maktabining faoliyati uchun litsenziya tantanalı ravishda topshirildi.

Shuningdek, “Vatanparvar” tashkiloti Buxoro shahri o'quv sport-texnika klubining zamon talablariga mos ravishda qurib



bitkazilgan avtodromi ham foydalanishga topshirildi.

So'zga chiqqanlar buxoroliklarni ushbu voqelik bilan tabriklab, tashkilot o'quv muassasalarida tahsil olayotgan fuqarolar haydovchilik sir-asrorlarini puxta o'zlashtirishiga munosib hissa qo'shishiga ishonch bildirdi.

Tadbir davomida Sherzod Ibragimov tashkilotning Buxoro shahri 2-sonli va Romitan tumani o'quv sport-texnika klublari litsenziyalarini ushbu muassasalar boshliqlariga tantanalı ravishda topshirdi.

Endilikda zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan qayta jihozlangan ushbu o'quv muassasalari avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish huquqiga ega bo'ldi.

Harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar, harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari hamda “Vatanparvar” tashkilotining sport seksiyalari namoyishi tadbirga o'zgacha kayfiyat ulashdi.



O'zbekiston kubogi



Navoiy shahrida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan sportning triatlon turi bo'yicha O'zbekiston kubogining birinchi bosqich musobaqasi o'tkazildi.

Unda mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan 80 ga yaqin sportchi 3 ta yosh toifasida g'oliblik uchun bahs olib bordi.

19 yosh va undan katta yoshdagi erkak va ayollar hamda 16-18 yoshli o'g'il va qizlar musobaqa shartlariga ko'ra, 750 metr masofaga suzish, 20 kilometr masofaga velosipedda harakatlanish va 5 kilometr masofaga yugurish bo'yicha o'zaro bellashdi.

TRIATLONCHI sportchilar bellashdi

12-15 yoshli o'g'il bolalar va qizlardan esa 350 metr masofaga suzish, 10 kilometr masofaga velosipedda harakatlanish va 2,5 kilometr masofaga yugurish talab etildi.

Murosasiz va qizg'in kechgan kubok musobaqasi quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

19 yosh va undan katta erkaklar o'rtasida:

1-o'rin: Sultan Aliyev (Toshkent sh.);
2-o'rin: Abdullajon Qoraboyev (Toshkent sh.);
3-o'rin: Ruslan Kornilov (Toshkent sh.).

19 yosh va undan katta ayollar o'rtasida:

1-o'rin: Dayana Lukiyeenko (Toshkent sh.);
2-o'rin: Parizoda Hikmatova (Toshkent v.);
3-o'rin: Dilnura Xolnizoyova (Navoiy v.).



16-18 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida:

1-o'rin: Yegor Yegorov (Toshkent sh.);
2-o'rin: Muhammadyusuf Abduxalilov (Andijon v.);
3-o'rin: Muhammadyunus Abdulvojibov (Andijon v.).

16-18 yoshli qizlar o'rtasida:

1-o'rin: Diana Bektemirova (Toshkent sh.);
2-o'rin: Shahrizabonu Abdusalomova (Toshkent v.).

12-15 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida:

1-o'rin: Salohiddin Fayzullayev (Toshkent v.);
2-o'rin: Grant Sayadyan (Toshkent sh.);
3-o'rin: Gleb Tuchkov (Toshkent sh.).

12-15 yoshli qizlar o'rtasida:

1-o'rin: Ziyoda Abalova (Toshkent v.);
2-o'rin: Dilrabo Abdualimova (Navoiy v.);
3-o'rin: Laura Beshiyeva (Toshkent sh.).

Jamoa hisobida:

1-o'rin: Toshkent shahri;
2-o'rin: Toshkent viloyati;
3-o'rin: Navoiy viloyati.

G'olib va sovrindorlar “Vatanparvar” tashkilotining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Ilolat

Hammasiga o'zim aybdorman. Balki, o'sha ayollarga salom berib o'tganimda ular bilan tortishmagan, ikki kunlab asabim buzilib yurmagan bo'larmidi? Lekin bekordan bekorga ortimdan gapirishlari, pastga urishlari alam qildi...

Musofirchilik ekan, payti kelsa, bir uydin boshqasiga ko'chishimizga to'g'ri keladi. Yashayotgan kvartiramizning egasi: "Endi elektr uchun o'zlaring to'langlar", degan gapidan keyin men ham to'nimni teskari kiyib oldim. Axir boshida bunday kelishmaganmiz, odam degan lafzida turishi kerak-da. Xullas, lash-lushlarimizni bir necha podyezd narida yashaydigan og'aynimnikiga qo'yib turadigan, yangi uy topgunimcha ayolim bolani olib, ota-onasinikiga borib turadigan bo'ldi. "Kambag'al bo'lsang, ko'chib ko'r", deb bekorga aytmagan ota-bobolarimiz. O'zimiz kichkinagina oilamiz-u, narsalarimiz bir dunyo. Qo'limga beshik, yana bir-ikkita sumkani olib, pastga tushdim. Qo'shni podyezd oldida besh-olti xotin gaplashib o'tirgan ekan. Yonlaridan o'tib ketishim bilan ulardan yoshi kattarog'i gapirib qoldi:

– Bular ko'chib kelaveradi-ko'chib ketaveradi, bezor qildi hammasi...

ENDI G'YBAT QILMAYMAN



Muzlab qoldim. Nima, men u ayolning uyiga ko'chib kelib, unikidan ketyapmanmi? Unga qanday og'irligim tushyapti? To'g'ri, "musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmaysan", deyishgan. Lekin har safar ko'chish menga og'ir botadi. O'zi boshimdagi tashvish yetib ortib turgan bo'lsa, hozirgi gap esa naq yuragimni teshib o'tganday bo'ldi, ko'nglim og'ridi.

Qolgan narsalarni er-xotin tashiy boshladik. Har safar o'tganimizda bitta bemaza gap eshitamiz.

– Qaysi qo'shni bular? – so'radi yoshroq bir juvon. –

– E, qo'shni emas-e...

– Hayron bo'ldim-a, boyadan beri nima tashivotti bular deb.

Asabim adoyi tamom bo'ldi. Oxirgi narsalarimizni tashlab qaytayotgan edik. Ayollar o'tirgan joyga yaqinlashgach, xotinimning gapini shart bo'ldim-da, ovozimni atay balandlatib dedim:

– Hadisda "G'iybat zinodan ham og'ir gunoh", deyilgan...

Boyadan beri chakagi tinmayotgan g'iybatchi ayol darhol sergak tortdi:

– Nima dedi?

– G'iybat zinodan ham og'ir gunoh, deydi, – gapimni takrorladi yonidagilardan biri.

– Ha, gapim og'ir botdimi? – dedim shart ortimga burilib.

– Nima?!

– Gapim og'ir botdimi, deyapman.

– Nima demoqchisiz? Kimsiz o'zi?

– Nima demoqchiligimni juda yaxshi tushunib turibsiz. Boyadan beri orqamizdan og'zingizga kelganini gapirib yotibsiz-ku! Kap-katta xotin, uyalmaysizmi?

– Hecham-de, biz toza havo olib o'tiribmiz xolos, siz bilan necha pullik ishimiz bor?

– Qo'ysangiz-chi, kar emasman-ku! Sizga nima yomonligimiz tegdi? Qishloqi, qishloqi, deysiz, qishloqdanligimni qayerdan bila qoldingiz? Sizga o'xshagan shaharliklar odam-u, qishloqliklar odam emasmi?

Ayol jahlim chiqqanini ko'rib, dovdirab qoldi. Yonidagilar boshini xam qilib olgan

bo'lsa-da, u sir boy bergisi kelmas, aytgan gaplaridan tonib turar edi:

– Unaqa deganim yo'q!

Bu ayolga gapirish befoya ekanini fahmlab, uzoqlasha boshladim.

– Ha, bilib qo'yinglar, g'iybat zinodan ham yomon gunoh, uyalsalaring bo'lardi!

Hatto ertasiga ham o'zimga kela olmadim. Kechqurungi voqea hech xayolimdan ko'tarilmasdi. O'zimcha o'sha g'iybatchi ayolni ham, uning gapini ma'qullab o'tirgan sheriklarini ham ayblar edim. Qanaqa ayollar ekan bular? O'tgan-ketganning asabini buzib, yarim kechasigacha laqillab o'tirishadi-ya. G'iybat qilishlari o'limtik go'sht yeyish bilan barobar-ku!

Oradan bir necha kun o'tgachgina bu voqeaning asl sababini topganday bo'ldim. Boshqalarni gunohkor qilish juda oson, jahlni bir yonga yig'ishtirib, o'ylab qarasam, asl aybdor o'zim ekanman. Men ham g'iybat qilishda o'sha ayollardan qolishmayman-ku. Bir kungina oldin yaqin tanishimning orqasidan nimalar gapirmagan edim? O'tgan yili ham xuddi shunga o'xshash janjalga duch kelgandim. Ammo o'shanda ham o'zimni oppoq sanab, aql bilan fikr yuritmagani ekanman. G'iybatning qanchalar og'ir gunoh ekanini bila turib, tilimni hech tiya olmayman.

Yaratganning adolati haq, mana, qilgan yomonliklarimning natijasi. Kech bo'lsa ham, anglab yetdim: endi hech qachon g'iybat qilmayman. Ko'zimni ochib qo'yganga shukur...

Abror ADHAMZODA
ziyouz.uz

Bellashuv

MAJMUAVIY SPORT MUSOBAQALARI



Respublikamizda joriy yilning iyul-avgust oylarida Mudofaa vazirligi tomonidan otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida "Biz bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!" shiori ostida keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy, vatanparvarlik va sport tadbirlari o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Rejaga ko'ra, Mudofaa vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tashabbusi bilan Toshkent shahri Chilonzor tumani 1-sektorda joylashgan 14 ta mahalladagi otaliqqa olingan hamda uyushmagan yoshlar o'rtasida 101-umumta'lim maktabida majmuaviy musobaqaning birinchi (tuman) bosqichi bo'lib o'tdi.

Ishtirokchilar "Harbiylashtirilgan sport estafetasi", "Arqon tortish" va "Zakovat" shartlari orqali harbiy-



amaliy sportdagi qobiliyat hamda bilimlarini sinovdan o'tkazib, do'stona bellashuvga kirishdi.

Shiddatli, shu bilan bir qatorda murosasiz kechgan bahslarning yakuniy natijalariga ko'ra, 1-o'rinni Al-Xorazmiy mahallasi yoshlari qo'lga kiritdi. 2- va 3-o'rinlar Sharaf va Guliston mahallalari yoshlariga nasib etdi. G'oliblikni qo'lga kiritgan jamoalar diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi hamda bellashuvning shahar bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Shahnoza SULTONOVA

Sarhisob



Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazida 2024-yilning 6 oyida qonuniylik, huquq-tartibot ahvoli, huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi chora-tadbirlar yuzasidan muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi o'tkazildi.

Nukus harbiy prokurori adliya polkovnigi Ulug'bek Abdurahimov raisligida o'tgan kengash yig'ilishida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi vakillari, harbiy qism komandirlari va muassasalar boshliqlari, DXX Chegara qo'shinlari, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga qarashli harbiylashtirilgan hududiy bo'linmalar mansabdor shaxslari ishtirok etdi.

Muloqotda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlar faxriylarining murojaatlarini o'rganish hamda ularni qiynab kelayotgan muammoli masalalarni hal etishga ko'maklashish, harbiy xizmatni o'tashda xavfsiz va qulay sharoitlarni yaratish borasida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi.

Yakunda kun tartibida ko'rilgan masalalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

MUVOFIQLASHTIRUVCHI KENGASH YIG'ILISHI



TOG' SHAMOLI

(hikoya)

QIBLA SHAMOLI BO'LIB QAYTGANIDA

Xola qaytib kelmadi. Kechda Bekjon kelib, opasini olib ketdi. Uch-to'rt kun o'tib, aka-ukalar uni olisroq tumandagi Saxovat uyiga joylashtirib keldi. So'raganlarga "o'zi istadi", deb qo'ya qoldilar.

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

Lola keyingi paytlar amma haqida ko'p o'ylaydigan bo'lib qolgandi. Bugungi suhbat uni ko'pdan qiynab kelayotgan o'z-o'ziga beradigan savollar sonini orttirsa orttirdiki, kamaytirmadi.

Uyiga bir ahvolda qaytib keldi. Sochlari batamom to'kilgan boshidan ro'molini olib, to'shagiga horg'in uzandi. Onasi ortidan kirdi.

– Bir parchagina go'sht qaynatgan edim, shuginani yeb ol.

– Hech narsa yegim yo'q...

– Yemasang, kasalni qanday yengasan? Tur, o'zi bir parchagina et, yo shu yerga olib kelaymi ovqatingni?

– Kerak emas, – dedi qiz boshini ko'tarib, yostiqlariga suyanar ekan. Birpas ko'zlarini noma'lum yoqlarga tikib turdi-da, og'ir uff tortdi. – Bugun saharda ko'zim biroz ilinib, ammani tush ko'ribman...

– O'lganidan keyin ham qutulmas ekanmiz-da...

– Aya! – qizining past, ammo keskin ovozidan onasi tilini tiydi. Ikkisi ham jim qoldi. Qiz onasining ro'mol ostidan

chiqib turgan oppoq sochlariga, ingichka, qop-qora qo'llariga, kun issig'ida ham sira yechmaydigan nimchasiga endi ko'rayotgandek bir-bir qaradi, so'ng ko'zlariga tik boqib so'radi: – Aya, nima uchun ammani yomon ko'rgansiz?

– Lola, nima keragi bor eski gaplarni qo'zg'ab? – onasi ko'zini olib qochdi.

– Ayting, nima uchun yomon ko'rar edingiz? Bilishni istayman. Yo'lda uning dugonasini ko'rdim. Chiroyli qizaloqni yetaklab olgan. Ko'rmaganga olib o'tib ketishimning hech iloji bo'lmadi. “Bu qiz ukamning kenja qizi, – dedi so'ramasam ham qizchani ko'rsatib. – Ayang bir vaqtlar fotihasini buzib yuborgan ukam bor-ku, o'shaning qizi. Buning dadasi bo'z yigitlik vaqti fotiha qilingan qizi tomonidan surishtirib kelishganda ayang: “O'shani kuyov qilasizlarmi, oilasidagilar uni odam o'rnida ko'rmaydi, molxonada mollar bilan yotadi”, degan. Ayang kechalari uxlamay, birovlarining molxonasini tekshirib yurgan shekilli, hi-hii. Ollohga shukur, taqdiri boshqa qiz bilan ekan, mana, bir-biridan go'zal qizlar ko'rdi, uy-joylar qurdi. O'shanda onam bilan ukamning ezilganlari... Dushmanimga ham ravo ko'rmayman. Bechora ukamning bor aybi qulog'ining karligi edi”. Ammaning dugonasi qayerda meni ko'rsa, ta'na qiladi, bir achchiq gap bilan uzib oladi...

– O'shaning o'zi kim edi-yu, dugonasi

kim bo'lardi?! – dedi achchiqlanib onasi. – Senga ta'na qilgan tillarini sug'urib kelaman! Fotihasini men buzibmanmi? Qiz tomon karligini keyin bilib qolgan, shunga buzilgan... O'lsa ham qutulib bo'lmadi-ya shundan! Qo'y endi, o'lgan odamning orqasidan gapirib, gunohga botmaylik...

– Gunoh... – dedi Lola uff tortgandek ohangda, – men gunohkorman, “mollar bilan yotadi”, degan gapingizni eshitib, “yolg'on”, deya olmagan men gunohkorman, bola edim, ammo kim haqida gapirayotganingizni bilganman o'sha begona odamlarga. Ammaning oldida ham gunohkorman. Aya, tavba qilishga imkonim yetarmikan?

– Aytgan bo'lsam aytgandirman, shunga ham ota go'ri qozixonami? Ammangga, ana, aka-ukalari ega chiqsin edi, yo'q, bular hammasi o'sha nogironni menga tashlab qo'ymoqchi bo'ldi, sen nega gunohkor bo'lasan? – dedi onasi yig'i aralash. – Bokira bir qiz bo'lsang.

– Ha, shunday, – Lola achchiq kuldi, – bokira, qirq besh yoshli bokira qizman. Aya, nega meni birov so'ramadi? Xunukmidim? Mendan xunuklar ham bor-ku, sevimli, oilali. Qanday aybim bor? Yengiltak bo'lmasam?

– Ollohnning qadari... qani edi, mening qo'limda bo'lsa, bu taqdir ishi.

– Balki, Ollohnning qadaridir, ammo qarg'ishga qolganimiz aniq, ammaning qarg'ishi meni topdi.

– O'zi sababchi edi, o'tirgan joyida hammaning ishiga burun suqardi. Kichik amakingning xotini haqida nimalar demovdi. Buzuqdan olib, buzuqqa solib...

– Amma o'shanda yolg'on gapirmagan edi. U sezgan narsaning men guvohi bo'lganman... Mana, qizi onasining ishini takrorlab, sharmandayi sharmisor bo'ldi-ku?! O'sha qiz ham bolaligida ammani odam o'rnida ko'rmas edi. Undan keyin Shahlo opam ham o'shanda yolg'on gapirgan edi. Amma shunchaki sevgi haqida kinolar so'ragan edi. Aya, ammaning dilini og'ritganlarning birortasi ro'shnolik ko'rmadi. Shahlo opam to'rtta erga tegdi, tirnoqqa zor o'tyapti. Singlimning ham turmushi

buzildi, bitta bolasi bilan sarson-sargardon yuribdi. Men... men hatto ammaning yoshiga yetmayman.

– Nimalar deyapsan, oradan shuncha yillar o'tib, kechgan savdolar haqida nega gapirib qolding? Baxtingga kuysam, dardingga kuysam, yana mendan domangir bo'lyapsanmi?

Amma birovga erga tekkan o'sha hoida. Bozorda aylanib yurganlarini ko'rganlar aytib kelgan. Tek o'tirmagan o'sha joyda ham.

– Bozorda aylanib yurganmish, – Lola istehzoli kuldi, – tilanchilik qilib yuribdi, deb aytishgan edi. Qanday qilib, tirik akalari, jiyanlari bor bir ayol tilanchilik qilib yurdi?! Nega bunchalik yomon ko'rdinglar uni?! Nega adovatingizga bizni ham sherik qildingiz? Oldida o'tirishni istamay, o'yinqaroqlik qilib qochsak ham, majburlab o'tqazib qo'ysangiz bo'lar edi-ku?! U ko'p narsa so'ramasdi. Afsus... juda beaql bo'lgan ekanman. Yosh bo'lganman.

Tavba qilishni istayman. Qabrini quchib, tuproqlarini peshonamga surib, kechirim so'ramoqchiman. Kech bo'lsa ham. Sanoqli kunlarim qolgan, sezyapman. Aya, kechmishni ortga qaytarib bo'lsaydi...

– Shuning go'riga boshlab borsam, yengil tortasanmi, qizim?! – dedi onasi baqirgudek bo'lib.

– Umid qilyapman, biroq yengil tortmasligimni bilaman.

– Erta tongda yo'lga chiqamiz, hozir damingni ol bo'lmasa. Dadangni ogohlantiray, – deb onasi xonadan chiqib ketdi.

Ertasi kuni Saxovat uyiga peshin vaqtida yetib borishdi. So'rab-surishtirib, qabristonni topdilar. Qo'lida xas-xashak bilan o'rta yashar bir erkak chiqib, ularga savol nazari bilan boqdi. Maqsadlarini anglagach, qo'li bilan ko'rsatdi:

– Huv anavi chekkada, kimsasiz g'ariblar huv o'sha chekkaga qo'yilgan.

Lola avval dadasiga, so'ng onasiga hasrat to'la nigohlari bilan boqdi. Bu boqishda hamma narsa mujassam edi: armon, ta'na, pushaymonlik... Ikkisi ham qizining boqishlariga bardoshlari yetmay, erkak ko'rsatgan tomonga qarab yurdi. Kimsasiz g'ariblar uch yo to'rtta ekan. Ota-onasi turgan qabr boshidagi yozuvda ayolning ismi mutlaqo boshqa edi.

– Uning ismi Jamila edi-ku? – dedi hayron bo'lib Lola.

– Uning ismi Meylixol edi, bu ism unga hech yoqmasdi, meni Jamila deb chaqiring, derdi. Shunga Jamila derdik, Jamila bo'lib ketgan edi... – dedi otasi ko'z yoshlari yuzini yuvib, so'ng kesilgan daraxtdek qabr ustiga o'zini tashladi. Lola esa sekingina tiz cho'kdi, qo'llari yetganicha qabrni quchib, tuprog'iga avaylab yuzini bosdi. Ilk bor huzurni tuygandek ko'zlarini yumdi. Onasi kimdir uni itargandek ortiga tislani, ikkisini yolg'iz qoldirdi.

Inobat NODIRSHOH



BAXT KALITI NIMADA?

Dugonalar bilan tez-tez uchrashib turamiz. Suhbat orasida bir dugonam ikkinchisidan: “Katta qizing nechanchi sinfga boryapti?” deb so‘radi. U ikkilanibroq: “Uchinchi sinfga boryapti shekilli”, dedi. Savol uncha yoqmagani yuzidan bilish qiyin emasdi.

Chunki u shu qiziga yig‘ayotgan sarposeplarni maqtayotgan edi: “Voy, o‘rtog‘jon, bilasanmi, tilla uzuk, ziraklargacha olib qo‘yganman. Agar moda o‘zgarsa, zargarga beraman-u, boshqatdan zamonaviy qilib yasatib olaveraman. Paxta gulli chinnilarning har biridan 50–100 tadan olib qo‘ydim. Agar bilsang, paxta gulli chinni modadan qolmaydi. Yana yangi chiqqan ko‘rpa-to‘shaklar ham tashlab qo‘ydim. Katta sandig‘im dasturxon-u sochiqlarga to‘lgan. Hatto “kelinsalom”ga beradigan patnislarim ham taxt turibdi”, dedi dugonam to‘lib-toshib. Boshqa bir dugonam esa: “O‘g‘limni bu yil maktabga chiqaraman, uy vazifasini tayyorlashga qiyinlayaptimi, qizing necha bahoga o‘qiydi?” deb savolga tutdi. Undan maktab, qizingning o‘zlashtirishlari to‘g‘risida ma‘lumot olmoqchi edik. Sababi farzandlarimizni shu yil maktabga chiqarmoqchi edik. Dugonamiz esa bamaylixotir sovuqqina jilmayib: “Voy, bilmayman, qaynonam o‘sha maktabda o‘qituvchi, u bilsa kerak”, deb javob qaytardi.

Xullas, savolimiz ochiq qoldi. Dugonamiz allaqachon orzu-havas, lattaparastlik quliga aylangandi. U o‘quvchilik paytida ham shunday edi. O‘qishdan ko‘ra savdogarlik qilib, o‘ziga sep yig‘ish bilan ovora bo‘lgan.

“Qizingni beshikka sol, sepin sandiqqa”, degan maqolni hammamiz eshitganmiz. Demak, sep yig‘ish odati yangi emas. Lekin hozirgi kunda ko‘proq boyvuchcha ayollar tomonidan o‘ylab topilayotgan, urf bo‘layotgan ayrim ortiqcha hashamlar odamning tinkasini quritadi. Aksariyat hollarda to‘ylardagi bu dabdababozliklar ikki tomon orasiga

sovuqchilik solib, oila buzilishiga, bolalarning tirik yetim o‘lishiga sababchi ham bo‘lyapti.

Bobo-momolarimizning to‘ylari karnay-surnay sadolari ostida o‘tgan, kelin-kuyov ot-aravada kelgan. Tokchalarni ikkita samovar, bir juft patnis, besh-oltita piyola va choynaklar bezagan xolos. To‘g‘ri, endi zamon boshqa. Lekin hamma narsani zamonga yuklamay, aql bilan ish ko‘rsa bo‘ladi. Hozir qiz tomon sandiq to‘la sep, gilamlar-u “chemodan”li ko‘rpa-to‘shaklar, yotoqxonaga garniturlari, stenska, billur idishlar, rang-barang tovlanadigan “Madonna”lar, yetmaganiga stol-stul va so‘nggi urfdagi “Elita” pardalar... To‘ydan keyin “haftalik”, “chaqiriq”, “tug‘ilgan kun” degan rusumlar ham bor: televizormi, changyutkichmi, muzlatkichmi olib boriladi.

Mahallamizga yangi tushayotgan kelinning mebeli 25 ming dollar turarkan, degan gap yashindek tarqaldi. Afsuski, to‘yning ertasi kuni kuyov to‘satdan olamdan o‘tdi. Necha kundan beri to‘yning hashami bilan ovora bo‘lgan kuyov o‘pka shamollashini o‘tkazib yuborgan ekan.

Bir qo‘shnimning aqlli, odobli qizi bor. Eshitishimcha, kelgan sovcilarni xonadon egasi xontaxta atrofida kutib olgani uchun qizdan aynishibdi. Stol-stuli yo‘q ekan, deb qo‘shniga arz ham qilishibdi. Sodda qo‘shnim esa ertasigayoq bozordan yangi stol-stul sotib oldi. Aytgancha, yana boshqa yangi udum ham “bolaladi”. Unga ko‘ra, “sovcchi stoli” o‘rtasida uch qavatli likopchalarda har xil shokoladlar, ikki yonda katta idishda ho‘l mevalar, atrofida xandon pista-yu bodomlar, kalit bilan ochiladigan hind yong‘og‘i, chiroyli o‘ramda marmelad, ikki-uch idishda turli pishiriqlar qo‘yiladi. Har kelgan sovcchini tandirdan yangi uzilgan shirmoy non bilan kutib olish kerak. Birinchi ovqatga somsa, keyin qo‘y go‘shtidan sho‘rva... va hokazo... Bunday “sovcchi stoli”ni ko‘rgan qudalar bo‘lajak qudalarini “dasturxonli” deb ta‘riflaydi. Agar qizining baxti ochilavermasa, ona sho‘rlikning bu “sovcchi stoli”ni yillar mobaynida yangilab turishini tasavvur qilavering.

Ayrim oilalarda uchrashuvdan qaytgan qizdan yaqinlari “Kuyovning gap-so‘zi ma‘nilimi?”, “Odobi qanday ekan?” deyish o‘miga “Qo‘lingga uzuk taqdimi?”, “Bo‘yningga zanjir osdimi?” yoki “Qulog‘ingga zirak taqdimi?” deb so‘raydi. “Kelinsalom”da qaynona keliniga biror bir tilla taqinchoq hadya etishiga nima

deysiz? Ertasiga taqilgan tilla taqinchoq barcha qarindoshlarga, mahallaga ovoza bo‘lib, oshib-toshishi turgan gap. Buni ko‘rgan boshqa to‘y egalari “Men sendan qolamanmi?” qabilida ish yuritadi.

Hozirgi kunga kelib yangi rusum ham paydo bo‘la boshladi. Bu – chaqaloqni tug‘uruqxonadan olib chiqish. Shifoxonaga karnay-surnaychilarni boshlab kelish, o‘g‘il bo‘lsa, kostyum-shim, qiz bo‘lsa, oq kelin ko‘ylak kiydirish urf bo‘layotir. Ko‘zni qamashtiruvchi qop-qora “Limuzin”da shifoxonadan parvarishtalab bo‘lib chiqqan kelin ertasiga boquvdan nolisa, kuyovbolaning: “Qancha sarf-xarajat qilganimni ko‘rding-ku”, deb turishiga kamqonlikdan aziyat chekayotgan, boshi aylanib, holsizlanayotgan kelinchak chidaydi. Oqibati esa hammamizga ma‘lum.

Ilgari eshikdan “Farzandli bo‘ldik”, deb kelgan kuyovga qaynona-qaynota bo‘lmish suyunchisiga bitta to‘n kiygizishi lozim edi. Hozir to‘nga qo‘shimcha yoniga ellik, yuz ming so‘m “suyunchi puli” berish urf bo‘lgan. Nabirali bo‘lgan qaynonaga ham kelinning onasi bir kiyimlik adras bilan yana ellik “ko‘ki”da suyunchi berarkan.

Endi ikki og‘iz beshik to‘ylari xususida. Onalarning vazifasi beshik to‘yiga birgina beshik olib borishmi yoki... Kundan kunga beshik to‘ylar ham kengayib bormoqda. Bolaning yotishi uchun karavot, belanchagi bilan. Kichik va katta “aravacha”. Cho‘miladigan tog‘orasi-yu cho‘michidan tortib shampunigacha... So‘rg‘ichdan “pampers”gacha va hokazo... Oilada qiz farzand dunyoga kelsa: bitta “garnitur”ga tushding, deb jo‘ralar yangi otani o‘rtaga olardi. Hozir birgina “garnitur” “xamir uchidan patir” bo‘lib qolyapti. Yon qo‘shnimning “o‘g‘il to‘yi”da hamma bilan “salom-alik” qilib, to‘y egalari va bolalar bilan rasmga tushib, “o‘rtani qizdirib yurgan” “Mikki-maus”ga ko‘zim tushib, yoqamni ushladim. Bu urfga nima deysiz?

Yosh oilada egizak farzand – Hasan-Zuhra tug‘ildi-yu, kelinning boshi g‘avg‘odan chiqmadi. Nima emish: “Bizning oilaga bitta farzand ham yetardi, nega ikkita tug‘asan, boqa olmayapmiz”, deb qaynona kelinni hol-joniga qo‘ymadi. Shunday ahvolda kelin ancha qiynaldi. Orada beshik to‘yi ham o‘tdi. Kelinning o‘sha yili opasi, undan so‘ng otasi vafot etib, yosh onaning suti qochib, egizaklarni sun‘iy taomlar bilan boqishga majbur bo‘ldi. Tabiiyki, bunga ikki hissa mablag‘ sarf bo‘ladi. Afsuski, bu oila o‘ziga to‘q

bo‘lishiga qaramay, qaynona bunga chiday olmay, kelinning oilasidagilar ham boqishsin, dedi. Kelin onasining og‘ir xastaligiga ham qaramay, majbur bo‘lib Zuhrasini onasiga berdi. Xudo o‘zi birlashtirib yaratgan egizaklarni qanday yurak bilan ajratish mumkin, bilmadim.

Ayrim hollarda o‘g‘limizni urintirgimiz kelmaydi-da: “O‘g‘lim, falonchining qizini kelin qilaylik, zo‘r lavozimda ishlaydi-da o‘ziyam. Qizini uzatsa, rosa eriydi. Manavi yangi qurgan to‘rt xonali uyimizni to‘ldirib olarmidik bahonada...” degan orsiz gaplarga qulog‘i o‘rganib, to‘ydan keyin qaynotasi berib yuborayotgan pullarni “vaqtincha ishlamayotgan” o‘g‘limiz bemalol sarflaydi va biz buni tomoshabin bo‘lib kuzatamiz... Aksincha, tekin joydan undiriladigan narsalarni o‘ylashdan ko‘ra o‘g‘illarimizga ro‘zg‘orning kam-ko‘stini qanday to‘ldirish, oilani oqilona tebratish yo‘llarini yoshligidan o‘rgatishimiz, o‘zimiz ularga o‘rnak bo‘lishimiz lozim emasmi? Oilani manfaatlar makoniga aylantirishning oqibati ko‘pincha voy bo‘ladi.

Shifokorlarning ta‘kidlashicha, hozirgi yoshlar orasida bo‘yi past, vazni yengil, kamqon, nimjonlari tez-tez uchrarkan, ba‘zilarida o‘pka shamollashi, buqoq, yurak va buyrak xastaliklari mavjud. Bundan ko‘rinadiki, har xil ortiqcha xarajatlarga chek qo‘yib, o‘zaro kelishilgan holda “Ko‘rpaga qarab oyoq uzatsak”, asosan farzandlarimiz ilmiga, sog‘lig‘iga e‘tibor berib, ularni kasbli-hunarli qilsak, ayni muddao bo‘lar edi.

Xoh qiz bo‘lsin, xoh o‘g‘il bola – ularni katta qilar ekanmiz, ota-onaning vazifasi faqat qiziga sep, o‘g‘liga sarpo yig‘ishdan iborat emas. Ota-ona, eng avvalo, farzandlarini sog‘lom holda voyaga yetkazishi, ilm egallashi, yurtga foydasi tegadigan hunar egasi bo‘lishiga e‘tibor berishi kerak. Axir yurtimizda barkamol avlodni kamolga yetkazish, farzandlarimizni sog‘lom va ma‘nan yetuk qilib tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga, g‘amxo‘rliklarga hammamiz guvoh bo‘lib turibmiz.

Sog‘lom, ma‘nan yetuk va barkamol farzand faqat ota-onasininggina emas, butun millatning boyligi. Ilmli, hunarli farzandlar to‘kis baxtni o‘zlari yaratadigan bo‘lib kamol topadi. Biz farzandlarimizning kelajagi uchun qancha “taqir-tuqur” yig‘maylik, tarbiyasidagi asosiy mohiyatni unutsak, buning uchun zarur bo‘lgan qimmatli vaqtni boy bersak, bolalarimizning baxtini butun qila olmaymiz. Oshib-toshgan seplar, antiqa urf-odatlar baxtning kaliti bo‘la olmaydi.

Muyassar ISLOMOVA



BANDLIKNI TA'MINLASH — USTUVOR VAZIFA

So'nggi yillarda yurtimizda keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi va bu jarayon jadal davom etmoqda. Ta'kidlash joiz, bunday yangilanishlar natijasida jamiyat farovonligini ta'minlash uchun ishsizlikni kamaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Shu o'rinda ertamiz egalari bo'lmish yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik, ularning bandligini ta'minlash, har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 32-bandida 400 ming nafar yoshning bandligini ta’minlash va muammolarini hal etishga erishish vazifasi alohida belgilab qo‘yilgani ham bejiz emas.

Ona Vatan oldidagi
burchini ado etib, muddatli
harbiy xizmatni o'tab qaytgan
yigitlarimizni ish bilan
ta'minlash ham shu masaladagi
yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Bu borada O'zbekiston
Respublikasi Prezidentining
2017-yil 24-yanvardagi hamda
Vazirlar Mahkamasining
2017-yil 2-iyundagi tegishli
qarorlari bilan harbiy xizmatni

o'tab qaytgan yoshlarni ish bilan ta'minlash, professional salohiyatini oshirish, bir so'z bilan aytganda, har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida vazirlik va idoralarga qator vazifalar yuklangan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan amaliy tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Muddatli harbiy xizmatni
o'tab qaytgan yoshlar uchun
Toshkent viloyatining Nurafshon
shahrida tashkil etilgan
bo'sh ish o'rinlari mehnat
yarmarkasi ham ushbu jabhadagi
tadbirlarning mantiqiy davomi
bo'ldi.

“Yoshlar markazi”da o‘tgan yarmarkaga 300 dan ziyod yosh jalb etildi, 20 dan ziyod korxona va tashkilot 2 mingga yaqin bo‘sh ish o‘rni bilan qatnashdi.

Tadbir davomida yoshlardan 105 nafarining bandligi ta'minlandi. Bundan tashqari, 28 nafar yosh kasbhunarga o'rgatish uchun monomarkazlarga jalb etildi.

Shuningdek, 174 nafar yoshga belgilangan tartibda Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati tizimlariga xizmatga kirish uchun yo'llanmalar berildi.

Bu kabi tadbirlar yoshlarimizning jamiyatda o'z o'rnini topishida, kelajakka ishonch bilan qadam tashlashida muhim o'rin tutadi.

**Adliya polkovnigi
Dilmurod HAMROYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokuraturasi
bo'lim boshlig'i**

SO'XDA SAYYOR QABUL

Xalq bilan bevosita muloqot qilish, odamlarning dard-u tashvishi bilan yashash, ularning muammolarini o'rganish va tezkor ijobiy hal etish choralarini ko'rish har bir davlat organining kundalik va asosiy vazifasi hisoblanadi.

Bu borada harbiy prokuratura organlari tomonidan ham qator amaliy tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Xususan, Farg'ona viloyatining So'x tumanida ommaviy sayyor qabul tashkil etildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari mas'ullari bilan hamkorlikda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari hamda yoshlar tinglandi.

Jarayonda kelib tushgan 51 ta murojaatdan 10 tasi joyida ijobiy hal etildi, 33 tasiga huquqiy tushuntirish berildi, 8 tasi nazoratga olindi.

**Adliya polkovnigi Ilhom SALOMOV,
Fargʻona harbiy prokurori**

Reklama

[illegible]

BUYUK IXTIROLAR

PLASTIK
PAKETLAR HAQIDA

Plastik paketlar kundalik hayotimizda juda keng tarqalgan bo'lib, do'kondan ularsiz qaytmaymiz. Bir necha o'n kilogramm og'irlikdagi yukdan tortib yengil hajmli buyumni solishda ham plastik pakettlardan foydalanamiz.

Xo'sh, plastik paketni kim ixtiro qilgan? Paketlarni yaratish yo'lidagi birinchi qadam 1870-yili amerikalik Jon Uesli Xayat tomonidan amalga oshirilgan. Bu paket selluloid – nitrosellyuloza va kamforaning qattiq aralashmasidan tayyorlangan. Ammo bu materialning bitta kamchiligi bor edi. Bu – uning portlash xususiyati. Keyinchalik selluloid fotoplyonkalar, chizg'ich, o'yinchoq va boshqa narsalarni ishlab chiqarishda qo'llanilgan.

Vaqt o'tib, 1908–1911-yillarda sellofan paydo bo'la boshladi. Bu material shaffof va elastikligi bilan selluloiddan farq qilardi. Ammo uni ishlab chiqarish juda qimmatga tushadi. Sellofanning suv o'tkazmaslik xususiyatini bilgach, ishlab chiqaruvchilar undan oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda foydalana boshladi. 1933-yili Britaniyaning ICI (*Imperial Chemical Industries*) kimyo kompaniyasi xodimlari tajriba tariqasida polietilen ishlab chiqardi. Dastlab u telefon kabellarini ishlab chiqarishda qo'llanilgan, keyinchalik AQShda meva, sabzavot va non mahsulotlarini qadoqlashda keng qo'llanila boshladi.

Hozirgi kunda atrof-muhit ifloslanishining oldini olish uchun mutaxassislar polietilendan imkon boricha foydalanmaslikni maslahat beradi. Chunki uning parchalanishiga 100 yilga yaqin vaqt ketar ekan. Shu sababli ba'zi davlatlarda polietilen paketlaridan foydalanish qat'iy taqiqlangan.



SIRLI SO'QMOQ



Hindiston – afsonaviy, ko'hna, shu bilan birga undan ham qadimiy Turondan olis joylashgan bir o'lka. U haqda borgan-bormagan, ko'rgan-ko'rmaganlar orasida har xil gap-so'zlar yuradi. Qizig'i, bular chinmi, cho'pchakmi, farqlash qiyin. Faqat bir narsa – tasavvurdagina shakllangan bahaybat fillar borligigina haqiqat.

Agar ishonilsa, ular bilan hindlar osmonga tutash tog'larni tag-tugi bilan qo'porib, daryolarni to'sishda foydalanarkan. Holbuki sohibqiron eshitganigamas, ko'rganiga ishonadigan odam. Shu bois bu gaplarga e'tibor berib o'tirmadi. Ammo ko'nglidan:

*"Kimsaning gapiga inonmoq bekor,
Lekin nima deganin bilib qo'ymoq darkor",* degan hikmatli misralar kechdi.

Bir oy bo'ldi hamki Hindiston safariga yo'lga chiqqan ulkan qo'shin turli qiyinchiliklar, mashaqqatlarni yengib, nihoyat, iqlimi iliq, tog'-u toshsiz tekisliklarga yetib keldi. Ularga urushqoq, qaroqchi qabilalar hujum qilgan paytlar ham, odam bo'yi baravar qor-u izg'irinlarda ko'milib, yo'l topolmay qolgan damlar ham bo'ldi. Nihoyat, mana, ko'zlagan manzilga ham oz g'oldi. Ammo ularni endi boshqa bir muammo – nihoyasi yo'q botqoqliklar kutib turganini bilmasdi.

– Amirim, endi ne qilurmiz? Bu botqoqlikning poyoni yo'q ko'rinadir, – lashkarboshining gaplaridan tushkunlik sezilib turardi.
– Askarlarga ayting, sarosimaga tushmasinlar. Buning albatta, bir yo'li bo'lishi kerak. Ungacha shu yerda qarorgoh tiklab, qo'nim topib turamiz.
– Amringiz bosh ustiga!

Botqoqlik ulkan qo'shin uchun haqiqatdan jiddiy muammo. Salgina nojo'ya qadam ham ularning cho'kib, halok bo'lishiga olib kelishi mumkin. Nahotki shuncha zahmat chekib kelib, tag'in quruq qaytib ketishsa? Bu mumkin emas! Sohibqiron shu kungacha bundan ham xatarli yo'llardan, makonlardan o'tgan. Ammo hargiz ortiga qaytgan kishimas.

U shuni o'ylab tuni bilan bedor

holda Yaratgandan bu mashaqqatni oson qilishini so'rab, ibodat qilib chiqdi.

Tong pallasi. Salgina ko'zi ilingan ekan. Birdan qulog'iga g'alati dupur-dupur tovushlar eshitildi. Aniqlab kelish uchun navkarlarini jo'natdi. O'zi esa:

– Qo'shin shay holatga keltirilsin, bu g'anim lashkari bo'lishi ham mumkin, – deb ehtiyot chorasini ko'rdi.

Biroq keltirilgan ma'lumotga ko'ra, bu yovvoyi fillar to'dasi bo'lib, har tong cho'milish uchun mana shunday yo'l olarkan. Ular faqat o'zlariga ma'lum bo'lgan bir so'qmoqdagina foydalanib, u yo'l cho'kib ketmaydigan, mustahkam ekan.

Bu xabarni eshitib, Temur mushkulini oson qilgan Tangriga shukronalar aytdi. Tezda fillarning ortidan yurib, quruqlikka chiqib oldi.

**Azamat
XUDOYBERGAN**



Poytaxtimizning Sergeli va Olmazor tumanlarida Mudofaa vazirligi tomonidan otaliqqa olingan yoshlarning harbiy-vatanparvarlik majmuaviy sport musobaqalari bo'lib o'tdi.

BIRLASHSAK — VATANMIZ!

“Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!” shiori ostida o'tkazilgan tadbirida yoshlar harbiylashtirilgan estafeta, arqon tortish musobaqalarida, “Zakovat” intellektual o'yinida, “Mardlar safidaman!” nomli qo'shiqlar tanlovida o'zaro bellashdi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni manzilli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish borasida davlatimiz rahbari qo'ygan vazifalar ijrosi bo'yicha o'tkazilayotgan mazkur tadbirlarga asosan, probatsiya nazoratidagi hamda profilaktik hisobda turgan, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan, bir so'z bilan aytganda, hayotda o'z o'mini topa olmayotgan yoshlar jalb etildi.

Qo'yilgan topshiriqqa muvofiq, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligiga respublika bo'yicha 1-sektorlar kesimida 120 mingdan ortiq yosh birlashtirilgan bo'lsa, shu davrgacha otaliqqa olinganlar bilan 5 mingdan ziyod harbiy-vatanparvarlik, sport va madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Yoshlarning bevosita ishtiroki bilan davom etayotgan ushbu musobaqa, bellashuv va ma'rifiy tadbirlarda asosiy e'tibor Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, ularda Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ijtimoiy, ma'naviy-



axloqiy fazilatlarini qaror toptirishga qaratilmoqda.

– Vatanparvarlik yoshlarda fuqarolik burchi, shaxsiy mas'uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini, faol hayotiy pozitsiya va qat'iy e'tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantiradigan qudratli vositadir. Shuning uchun alohida e'tiborga muhtoj va jinoyatchilikka moyil yoshlarga yordam ko'rsatish, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ularning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish, samimiy muloqotlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali ularda sog'lom fikrlashni yuzaga chiqarish, atrofda bo'layotgan hodisalarga teran munosabatda bo'lish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, vatanparvarlik tarbiyasiga jiddiy kirishganmiz, – deydi podpolkovnik Botir Qo'ziyev.

Musobaqalar yakunida g'oliblar hamda faol ishtirokchilar qimmatbaho va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Furqat ERGASHEV



@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsd Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

ko'tibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Islomjon Qo'chqorov

Sahifalovchi: Nodirabegim Ne'matova
Musahhih: Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-5793
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 902 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O'zbekiston” NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilmiz: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya